

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ONAXON JABBOROVA, ZUXRA UMAROVA

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
“TARBIYA” FANINI O'QITISH
METODIKASI**

«ZEBO PRINT»
TOSHKENT – 2022

UO‘K: 373.159.9

KBK: 74ya00

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda “Tarbiya” yangi fanini o‘qitishning nazariy, didaktik va amaliy asoslari yoritilgan. O‘quv qo‘llanmada o‘qitishning kredit-modulli tizimi talablari va o‘quv materiallarini tayyorlashning xalqaro baholash das-turlari qoidalariga asoslanilgan.

O‘quv qo‘llanmadan amaliy faoliyatdagи boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, o‘qituvchilar, pedagog xodimlar, murabbiylar va ilmiytadqiqot ishlari bilan shug‘ullanuvchilar ham foydalanishi mumkin.

Mazkur o‘quv qo‘llanma fan bo‘yicha ilk bor yaratildi va unda kamchiliklar bo‘lsa tuzatib foydalaniladi degan umiddamiz.

Mas’ul muharrir:

Shukurullo Mardonov – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchi:

Safo Matchonov – pedagogika fanlari doktori, professor,

Dildora Pulatova – pedagogika fanlari bo‘yich falsafa doktori (PhD).

MUNDARIJA

1-MODUL: “TARBIYA” FANINI O‘QITISH

METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI.....4

| | |
|--|----|
| 1-mavzu: “Tarbiya” fani va unga oid me’yoriy hujjatlar | 4 |
| 2-mavzu: “Tarbiya” fani manbalari | 10 |
| 3-mavzu: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi | 16 |
| 4-mavzu: Tarbiyada milliy g‘oya asoslari | 21 |
| 5-mavzu: Tarbiyaning asosiy tamoyillari va metodlari | 26 |

2-MODUL: “TARBIYA” FANINI O‘QITISH METODLARI

DIDAKTIKASI.....32

| | |
|---|----|
| 6-mavzu: Boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” fanini o‘qitish | 32 |
| 7-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitishning noan’anaviy shakllari | 38 |
| 8-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitishning masofaviy ta’lim shakli..... | 44 |
| 9-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitishning inklyuziv ta’lim shakli | 50 |
| 10-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitishning elektron-modulli shakli | 55 |

3-MODUL: “TARBIYA” FANINI O‘QITISH METODIKASI

AMALIYOTI61

| | |
|--|-----|
| 11-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitishning amaliy asoslari..... | 61 |
| 12-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitishning amaliy shakllari | 66 |
| 13-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitish amaliyotini takomillashtirish yo‘llari | 72 |
| Amaliy mashg‘ulotlar uchun mavzular | 76 |
| Mustaqil ta’lim uchun mavzular va topshiriqlar | 108 |
| Glossary | 109 |
| Tavsiya etiladigan adabiyotlar | 111 |

1-MODUL: “TARBIYA” FANINI O‘QITISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

1-MAVZU: “TARBIYA” FANI VA UNGA OID ME’YORIY HUJJATLAR

Reja:

1. Tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlari
2. “Tarbiya” fani asoslari
3. “Tarbiya” fanini o‘qitish zaruriyati

Tayanch tushunchalar:

Tarbiya, nazariya, fan, asos, me’yor, hujjat, o‘qitish, zaruriyat, qaror, bilim, ko‘nikma, uquv, kompetensiya, amaliyot.

Tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlari. “Pedagogika” fanining asoslaridan biri tarbiya masalasidir.

*Tarbiya-shaxsda muayyan jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.*¹ Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minalash yo‘lida qo‘llaniladigan chora-tadbirlar majmuasi tarbiyani tashkil qiladi. Tarbiya insonning insonligini ta’minalaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minalaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o‘tadi.

Pedagogik adabiyotlarda “tarbiya” atamasi keng va tor ma’nolarda qo‘llaniladi.² *Keng ma’noda* tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta’minalashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar va intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari va san’atning barcha turlarini o‘z ichiga oladi.

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-Том. –Т., 2004. 270 –бет

² Бордовская Н., Реян А. Педагогика. –Санкт-Петербург, 2001. –С.32

Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi va estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunda oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tarbiya ishini amalgalashadi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagini mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat biliimi ko'payibgina qolmay, balki, axloqiy-ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga uchraydi. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchvun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar qatorida tarbiya ham rivojlanib boradi.

Tarbiya nazariyasining umumiyligi xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- tarbiyaning nazariy asoslari;
- tarbiya didaktikasi;
- tarbiya amaliyoti.

Mazkur masalalar tarbiya nazariyasining negizi sifatida O'zbekistonda ta'sis etilgan yangi "Tarbiya" fani asoslarini tashkil etadi. Shu sababli jamiyatda tarbiyaning o'rni, ahmiyati va amaliyoti odamlar tomonidan yetarli darajada idrok etilmoqda. Mazkur masala bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini nazariy bilim, kasbiy ko'nikma va amaliy kompetensiyalar bilan qurollanishi kerak.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda yangi fan "Tarbiya" asoslarini bo'yicha maqsadli bilim berish, tarbiyaning yangi metodlari va texnologiyalari bilan qurollantirish dolzarb bo'lib turibdi. Shu sababli mazkur yangi tipdag'i elektron-modulli darslikning materiallariga diqqat qilish tavsiya etiladi.

"Tarbiya" fani asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020 yilda o'zbek "Pedagogika" fani tarixida ilk bor "Tarbiya" yangi fani ishlab chiqildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldaggi 422-sonli "Umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich

amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi va mazkur Qaror bilan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Kontsepsiysi” tasdiqlandi. Qarorga binoan “Tarbiya” fani amaldagi quyidagi fanlarni qo‘sish hisobiga tashkil etildi:

1) boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan “Odobnoma” va “Vatan tuyg‘usi” o‘quv fanlari;

2) yuqori sinflarda o‘qitiladigan “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslar” hamda “Dunyo dinlari tarixi” o‘quv fanlari.

Buning natijasida yangi fan shakllantirildi. Ushbu “Tarbiya” fanining metodologik asoslarni quyidagilar tashkil etadi:

- ta’lim-tarbiyaga oid me’yoriy hujjatlar;
- tarbiya asoslari va manbalari;
- tarbiya qonuniyatları, metodlari va texnologiyalari;
- tarbiyaning amaliy masalalari.

Aynan mazkur asoslar o‘quv fanining negizini tashkil etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bu asoslarni talab darajasida o‘zlashtirishi kerak. Aks holda, ularning mazkur fan metodikasi bo‘yicha kasbiy tayyorlarligi talab darajasida bo‘lmaydi. Shuningdek, qaror bilan 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab “Tarbiya” fani bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

“Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Kontsepsiysi”ga ko‘ra, mazkur fanning *umumiy asoslarni* quyidagilar tashkil etadi:

- huquqiy asoslar;
- tashkiliy asoslar;
- ilmiy-metodik asoslar.

Bunda *huquqiy asoslar* ta’lim-tarbiyaga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlardan iborat, *tashkiliy asoslar* fanni umumta’lim maktablarida, jumladan, boshlang‘ich ta’limda talab darajasida o‘qitishni va *ilmiy-metodik asoslar* esa fanning metodologiyasini anglatadi.

Qarorga ko‘ra, “Tarbiya” fanining *asosiy tamoyillarini* quyidagilar tashkil etadi:

- a) milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- b) ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish;
- v) fanga oid zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish;
- g) ochiqlik va shaffoflik;

d) tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

e) tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va hususiy sektor faoliyatining muvofiqligi hamda mutanosibligi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fanga oid bu tamoyillarini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi. Shu sababli oliv pedagogik ta'limgarayonida, tarbiyaviy tadbirdarda va mustaqil ta'limgarayonida ana shu tamoyillarni o'zlashtirish, faoliyatda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish hamda kasbiy faoliyatda ularga amal qilish kompetentsiyasini egallash dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun har bir talabaning individual shug'ullanishi, Ustozlar bilan hamkorlikda faol ishlashi va tarbiya tamoyillarining hayotdagi ifodasini o'rganib borishi taqozo etiladi. Bunda oliv ta'limgarayonining imkoniyatlari, ta'limgarayonining sharoitlari va faoliyatning amaliy samaradorligidan oqilona foydalanish kerak. Har bir talabaning mazkur fan tamoyillarini, asoslarini va istiqbolli maqsad-muddaolarini o'zlashtirishi kasbiy tayyorgarlikning negizlaridan biri hisoblanadi.

"Tarbiya" fanini o'qitish zaruriyati. O'zbekiston ta'limgarayonida, jumladan, oliv ta'limgarayonida "Tarbiya" fani asoslarini zamonaqiy talablar asosida o'qitish va o'rganish zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur fanni o'zlashtirish va uni o'qitishning metodikasini o'rganish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- fanning asoslarini chuqur bilish;
- fanni o'qitishning ilg'or va zamonaqiy pedagogik, innovatsion hamda axborot texnologiyalarini egallash;
- tarbiya masalasiga doir ilmiy-tadqiqotlarni o'rganib borish;
- inson va jamiyat hayotida tarbiyaning tutgan o'mini to'liq idrok etish;
- fan vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash metodlari va texnologiyalarini bilish;
- fanni o'qitish bo'yicha individual pedagogik tajribaga ega bo'lish.

Mazkur fanni o'rganish zaruriyati ilmiy, metodologik va amaliy jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uchun kasbiy talablardan hisoblanadi. Chunki bu fan gumanitar fanlar ichida tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish va samaradorligini o'rganib borish ishlarini muvofiqlashtiradi.

Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida “Milliy o‘quv dasturi” talablariga asosan o‘qitiladigan fanlar aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumiga ajratiladi. Shu jihatdan umumiy o‘rtta ta’lim maktablari, ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda tarbiyaning mazmuni nisbatan o‘zgaradi. Unga ko‘ra, quydagicha yondashuv amalga kiritilishi mo‘ljallanmoqda:

A) *aniq fanlar*: Matematika va uning takibiga kiruvchi fanlarni o‘qitish vositasida o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish bilan tarbiya jarayoni amalga oshiriladi;

B) *tabiiy fanlar*: Boshlang‘ich ta’limda “Atrofimizdag‘ olam”, “Tabiatshunoslik”(Science) fanlarini o‘qitish vositasida o‘quvchilarning mustaqil qarashlari, xohish va istaklarini to‘g‘ri tarbiyalash amalga oshiriladi;

V) *gumanitar fanlar*: “Tarbiya”, “Ona tili va o‘qish”, “Musiqa”, “Jismoniy tarbiya”, “Tasviriy san‘at” fanlarini o‘qitish vositasida o‘quvchilarning aqliy, jismoniy va estetik tarbiyasi amalga oshiriladi.

E’tibor berilsa, bundan keyin boshlang‘ich ta’limda tarbiya jarayoni umumta’lim fanlarini o‘qitish jarayonida amalga oshiriladi. Shu sababli bunday tarbiya jarayonini muvofiqlashtirib borish “Tarbiya” fani zimmasiga yuklanadi.

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinflarda istisno tariqasida estetik, aqliy va jismoniy rivojlanishni nazarda tutuvchi tarbiyaviy tadbirlar maqsadli o‘tkaziladi, shuningdek, bayramlar va tantanalar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy tarbiyasi amalga oshiriladi. Bu jarayonni tashkil etish va amalga oshirish ishlari “Tarbiya” fani vositasida amalga oshiriladi, unda mazkur fan o‘qituvchisi va Sinf rahbari mas‘ul hisoblanadi.

Bularning barchasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Tarbiya” fanini o‘qitish zaruriyati, uning asoslarini o‘zlashtirish va o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini egallashi taqozo etiladi. Shu sababli “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fani bo‘yicha o‘zlashtiriladigan nazariy bilim, didaktik ko‘nikma va amaliy kompetentsiyalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun birlamchi talablar hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur bilim, ko‘nikma va kompetentsiyalarini shakllantirish, ularni talabalarda tarkib toptirish va talabalarni kasbiy yo‘naltirish masalalari ushbu fan vositasida amalsha oshirilishi ishlari tashkil etilmoqda. Kelgusida ushbu fanni o‘zlashtirish natijalari bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf

o‘qituvchilarining kompetentsiya darajasini aniqlash monitoringi o‘rnataladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Tarbiya” fani bo‘yicha quyidagi *malakalarga* ega bo‘lishi taqoza etiladi:

- a) fan asoslari bo‘yicha nazariy-kasbiy bilimli bo‘lish;
- b) fanni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lish;
- v) fan vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash kompetensiyasini egallashi.

Mazkur masalalar oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘zlashtirilishi taqoza etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya jarayoni muhim pedagogik masalalardan biri bo‘lib, unda o‘qituvchi hozirgi talablarni hisobga olishi kerak. Shu jihatdan yuqorida ta’kidlangan Qarorda belgilanganidek, “Tarbiya” fanini o‘qitishda quyidagilarga e’tibor berish va ularni o‘zlashtirish zaruriyat hisoblanadi:

- davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarning to‘liq o‘zlashtirishiga erishish;
- o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrplashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;
- umumta’lim fanlarini o‘qitishning printsipial yangi metodologiyasi asosida tarbiyaning uzviyligi va uzlusizligini ta’minlash.

Bularning barchasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan to‘liq o‘zlashtirilishi lozim.

Shunday qilib “Tarbiya” fani va unga oid me’yoriy hujjatlar oliy pedagogik ta’lim jarayonida talab darajasida o‘zlashtirilishi taqoza etiladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Tarbiya nazariyasining umumiyl xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. “Tarbiya” fani asoslarini nimalar tashkil qiladi?
3. “Tarbiya” fanini o‘qitish zaruriyati nimalardan iborat?
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagagi 422-sonli Qarorini o‘rganing. //www.ziyonet.uz.

2-MAVZU: “TARBIYA” FANI MANBALARI

Reja:

1. O‘zbek Pedagogikasi tarixida tarbiyaga oid yondashuvlar
2. Jahon xalqlari pedagogikasida tarbiya masalalari
3. “Tarbiya” fanining ilmiy-tadqiqot metodlari

Tayanch tushunchalar:

Tarbiya, fan, manba, pedagogika, tarix, yondashuv, jahon, xalqlar, masala, bilim, tadqiqot, metod, ko‘nikma.

O‘zbek Pedagogikasi tarixida tarbiyaga oid yondashuvlar.

“Tarbiya” fani manbalari va ularni o‘rganish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun zaruriyat hisoblanadi. Bu borada o‘zbek pedagogikasi tarixida tarbiyaga oid muhim yondashuvlar bayon qilingan. Mazkur o‘rinda namuna sifatida ularning eng muhimlariga e’tiboringizni tortamiz.

“Avesto” kitobida yosh avlodni Ezgu niyatli, Ezgu fikrli va Ezgu faoliyat(amal)li shaxslar sifatida voyaga yetkazish alohida ta’kidlangan.³ Keyinchalik bu pedagogik tamoyillar jahon xalqlari tarbiya jarayonida qabul qilingan. Misol uchun, bu tamoyillar milliy pedagogikamizdan tashqari XIX asrda Germaniya pedagogikasida asosiy tamoyillar sifatida belgilangan.⁴ Shu sababli mazkur tamoyillar hozirgi zamon tarbiya jarayonida ham amaliyotga tadbiq etilmoqda. Masalan, yangi milliy g‘oyamizning ikkinchi tamoyili Ezgulikdir.⁵

Qur’oni karimda va *Hadisi shariflarda* yoshlarni E’tiqodli, Yaxshilik va Yomonlikni farqlash ruhida tarbiyalash ta’limi berilgan. Buning natijasida VIII asrdan boshlab to hozirgi kunga qadar Pedagogika fanimizda mazkur tamoyillar tarbiyaning asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Chunki e’tiqodli, yaxshilik va yomonlikni farqlovchi shaxs insonparvar, xalqparvar va vatanparvar kishi sifatida faoliyat yuritadi.

³ Авесто. – Тошкент, 2001.

⁴ Карапг: З.Фрейд. Менинг Зардўштим. – Тошкент, 2006

⁵ Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий гоямизнинг пойдеворидир. – Тошкент, 2021.

XI asr mutafakkiri *Yusuf Xos Hojib* “Qutadg‘u bilig” asarida yoshlarni Adolatli, Qanoathi va Bilimli qilib voyaga yetkazish metodologiyasini asoslab bergen. Uning yozishicha, bunday fazilatlarga ega inson eng yetuk hisoblanadi.

Sohibqiron *Amir Temur* “Tuzuklar” asarida shaxsni ijtimoiy tarbiyalash masalasini talqin qilgan va bunda shaxsda murosa (kompramiss) fazilatini shakllantirish lozimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, yetuk shaxs do’stu dushman bilan murosa qiladi. Do’stga murosa qilish tushunarli, lekin dushmanaga murosa qilish qanday bo’ladi? Dushman bilan murosa qilish shaxsning aqliy va axloqiy yetukligini bildiradi.

Alisher Navoiy “Hamsa” asarida bir qator komil insonlar timsolini tavsiflab bergen. Misol uchun, “Farhod va Shirin” dostonida Farhodni 9 yoshida komil inson bo‘lib yetishganini va buning uchun u eng yetuk Ustozlardan saboq olganligini tasvirlaydi. Shirin esa o‘z davrining eng axloqiy, aqliy va estetik yetuk kishi sifatida taqqid etiladi. Ular bunday komillikka yoshligida olgan tarbiyalari tufayli yetishgan.

Jadid mutafakkiri *Mahmudxo’ja Behbudiy* “Padarkush” pedagogik dramasida *bilm* olmagan bolaning padarkush bo‘lib yetishini tasvirlab bergen. Chunki bilim tarbiyaning ilmiy va nazariy asosi hisoblanadi.

Keltirilgan manbalardan ma’lum bo‘ladiki, tarbiya jarayonida shaxsda bir talay fazilatlar, tamoyillar va g‘oyalarni shakllantirish lozim bo‘ladi. Har qanday tarbiya jarayonida bu pedagogik merosga tayaniladi.

Jahon xalqlari pedagogikasida tarbiya masalalari. Jahon xalqlari pedagogikasida bir qator tarbiyaga oid tajribalar shakllantirilgan. Mazkur o‘rinda ularning eng muhimlariga diqqatingizni tortamiz.

Chex pedagogi *Yan Amos Komenskiy* “Buyuk didaktika” asarida yosh avlodni o‘qitish vositasida tarbiyalashni asoslab bergen. Bunda o‘quv fanlarini o‘qitish jarayoni shaxsning aqliy, axloqiy va estetik tuyg‘ularini shakllantirishga, shaxsni hayotga tayyorlashga asosiy e’tibor qaratiladi.

Fransuz pedagogi *Jan Jak Russo* “Emil” asarida oila tarbiyasi masalasini talqin qilib bergen. Uning fikricha, oilada bola tarbiyasi bilan oilaneng eng yetuk a’zosi shug‘ullanishi kerak. Pedagog bu bora-zda onalarning tarbiyaviy o‘rnini alohida ta’kidlaydi va Emil ismli onaning o‘z farzandini qanday tarbiyalaganligini, bu bu ayol “Kundaliklar” tutib borganligini ko’rsatib beradi. Shu ma’noda tarbiyasi

bilan shug‘ullanuvchi shaxsnинг Kundaliklari bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shved pedagogi *Logan Genrix Pistalotsi* “Erudiga maktablar” asarida yoshlarni ijtimoiy tarbiyalash va bunda ularni savodxon qilish masalasiga alohida tayanish lozimligini asoslab bergan. Hozirgi kunda butun dunyo xalqlarida amalda bo‘lgan savodxonlikni Alifbedan boshlash tizimini aynan Pistalotsi asoslab bergan.

AQSH pedagoglari, masalan Jon Jems, tarbiyada pragmatizm, ya’ni tarbiyaning amaliy natijalarini ustuvor qo‘yishadi. Unga ko‘ra, shaxsga kelgusi faoliyatida zarur bo‘lgan bilim, fazilatlar va ko‘nikmalar shakllantirilishi kerak.

Mazkur masalalardan ma’lum bo‘ladiki, jahon xalqlari pedagogik tajribasida ko‘p hollarda tarbiyaning amaliy jihatlariga e’tibor qaratiladi. Bugungi kunda ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ana shu tajribalarni o‘rganishi, o‘zlashtirishi va amaliy faoliyatda qo‘llay olishi taqozo etiladi. Shu sababli mazkur “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fani vositasida jahon xalqlari pedagogikasining tarbiyaga oid tajribalarini o‘rganish masalasi va uning metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki hozirgi zamon xalqaro ta’lim dasturlari va talablari aynan Yevropa, Osiyo va Amerika qit’alarida yashovchi xalqlarning pedagogik tajribalariga asosan ishlab chiqilgan. Masalan, Sharq xalqlari pedagogikasidan Ustoz-shogird tajribasi butun dunyo xalqlari tarbiya jarayoniga tadbiq etilgan.

“Tarbiya” fanining ilmiy-tadqiqot metodlari. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy kompetentsiyalarini o‘zlashtirish jarayonida “Tarbiya” fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini ham o‘rganishi muhim ahamiyatga ega. Bu fanning metodlari Pedagogika fanining metodlaridan olingan bo‘lsa-da, biroq ular mazkur fan asosida kengroq ma’noda tushuniladi. Chunki tarbiya jarayonining xarakteri shuni taqozo etadi.

Mamalakatimizda ta’sis etilgan “Tarbiya” fanining eng asosiy *ilmiy-tadqiqot metodlari* quyidagilardan iborat:

- tarbiyaga oid pedagogik merosni o‘rganish;
- tarbiyaga oid jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarini o‘zlashtirish;
- tarbiyaga oid me’yoriy hujjatlarni bilish;
- tarbiyachining o‘z individual tarbiyaviy tajribasining bo‘lishi.

Mazkur ilmiy-tadqiqot metodlari o‘rganish, manbalarni o‘zlashtrish va tajriba o‘tkazish asoslarida o‘rganiladi.

Bu metodlar pedagogik turkumdag‘i barcha fanlarda qo‘llaniladi. Biroq ushbu metodlardan “Tarbiya” fani ilmiy-tadqiqot metodlarini belgilashda quyidagilarga alohida e’tibor beriladi:

a) tarbiyaga oid pedagogik meros o‘rganilganda qadimdan ke’layotgan tarbiya g‘oyalari, usullari, tizimi va uni amalga oshirish yo‘llariga alohida e’tibor beriladi;

b) tarbiyaga oid jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarini o‘zlashtrishda tarbiyaviy yondashuvlar, ularning amaliy tajribadan o‘tganligi va bugungi kun talabalariga javob berishi masalalariga diqqat qilinadi;

v) tarbiyaga oid me’yoriy hujjatlarni o‘zlashtirishda aynan tarbiya masalasiga yo‘naltirilgan davlat standartlari, malaka talablari va murabbiy-o‘qituvchilariga qo‘yiladigan pedagogik talablarni o‘rganish va ularga amal qilish masalalariga e’tibor beriladi;

g) tarbiyachining o‘z individual tarbiyaviy tajribasiga ega bo‘lish uchun talabalik davridayoq tarbiya asoslari, metodologiyasi, didaktikasi va amaliyotini o‘zlashtirish bilan pedagogik hamda malakaviy amaliyotlar davrida amaliy ko‘nikmalar bilan qurollanishga diqqat qilinadi.

Bularning barchasi “Tarbiya” fanining ilmiy-tadqiqot metodlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish asoslari hisoblanadi. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining quyidagi *ko‘nikmalarga* ega bo‘lishi taqozo etiladi:

- tarbiya asoslarni o‘zlashtirishga qiziqish;
- bolaparvarlik sifatiga ega bo‘lish;
- muntazam o‘zi ustida ishlab borish;
- o‘z tajribalarini ommalashtirish.

Bular oliy pedagogik ta’lim jarayonida pedagogik turkumdag‘i fanlarni o‘qish, tarbiyaviy tadbirdorda ishtirot etish va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari vositasida o‘zlashtiriladi. Shu jihatdan hozirgi zamon talabalarining faol bo‘lishi taqozo etiladi. Misol uchun, bugungi kun talabalari zamonaviy texnik texnologiyalardan foydalanishni yaxshi bilishadi, ayni paytda, ular bilim olish masalasida faollashishi kerak.

Mazkur ko‘nikmalarни o‘zlashtirishda hozirgi oliy pedagogik ta’lim jarayonida quyidagi mashg‘ulotlarning turlari muhim ahamiyatga ega:

- amaliy mashg‘ulotlar;
- mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari;

- o‘quv jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar;
- auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar.

Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida mazkur mashg‘ulotlarni tashkil etish va amalga oshirish tizimini ishlab chiqish zaruriyat bo‘lib turibdi. Ayni paytda, amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarining topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarish bilan ta’kidlangan ko‘nikmalarni kutilgan darajada o‘zlashtirish imkoniyati mavjud.

“Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini idrok etishda milliy va xalqparvarlik tamoyillariga asosiy e’tiborni qaratish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vaziri Sh. Shermatovning fikricha, bugungi kunda maktablarda amalga oshirilayotgan “tarbiya jarayoni umumxalq xususiyatiga ega bo‘lmoqda”⁶. Buning ma’nosи shuki, umumta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Tarbiya” fani umumxalq xususiyatiga, ya’ni xalqimizga xos bo‘lgan fazilatlar, odatlar va turmush-tarz madaniyati asolariga tayanishi lozim.

“Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi”

fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini shakllantirish va uni o‘zlashtirish tizimlarini belgilashda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- davlat ta’lim standartlari va malaka talablarida belgilangan vazifalarni birlamchi bilish;
- pedagogik tadqiqotlarda tajriba-sinovdan o‘tgan metodlarni qabul qilish;
- innovatsion va integratsion xususiyatlarga ega yondashuvlarni ilmiy ishlanmadan o‘tkazgan tarzda ilmiy muomalaga kiritish;
- o‘zining ilmiy maktabiga ega bo‘lgan pedagoglarning individual tajribalarini amaliyot sifatida qabul qilish;
- milliy va umuminsoniy pedagogik qadriyatlarni tavsiflovchi g‘oyalarga asoslanish.

Aynan bunday yondashuv ushbu fanning ilmiy-tadqiqot metodlarini belgilab olishda zamonaviylikni keltirib chiqaradi. Chunki bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitilayotgan pedagogik turkumdagи fanlarning umumiyligi va individual ilmiy-tadqiqot metodlari mayjud. Umuman bizning yondashuvimizga ko‘ra, “Tarbiya”

⁶ Шерматов Ш. Ижро интизоми – жойлардаги ислохотлар самарадорлигининг асосий омили. // “Янги Ўзбекистон” газетаси 2021 йил 19 июнь сони

fanining ilmiy-tadqiqot metodlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi shart.

Bularning barchasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun muhim kasbiy kompetensiya hisoblanadi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. O‘zbek pedagogikasi tarixida tarbiyaga oid yondashuvlar deganda nimalarni tushunasiz?
2. Juhon xalqlari pedagogikasida qanday tarbiyaga oid tajribalar mavjud?
3. “Tarbiya” fanining asosiy ilmiy-tadqiqot metodlarini nimalar tashkil etadi?
4. O‘zbek pedagogika tarixida mavjud bo‘lgan tarbiyaga oid yondashuvlarni konspekt qiling.

3-MAVZU: MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TARBIYASI

Reja:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongiga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanganlik darajasini baholash

Tayanch tushunchalar:

Milliylik, umuminsoniylik, tarbiya, qadriyat, sinf, o‘quvchi, singdirish, tarbiyalash, baholash, bilim, ko‘nikma.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Insonparvarlik, ezzulik va buniyodkorlik – milliy g‘oyamizning asosiy poydevordir” kitobida hozirgi zamon ta‘lim jarayonimizda yosh avlodni *milliy qadriyatlar* asosida tarbiyalash vazifasini qo‘ygan.

Milliy qadriyatlar – bu xalqimizning azaldan amal qilib kelayotgan fazilatlari, odatlari va turmush-tarzimizning madaniy an‘analari majmuidir. Shu ma’noda tarbiya jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagi *fazilatlarni* shakllantirish taqozo etiladi:

- insonni qadrlash;
- Vatanni sevish;
- o‘zgalarni hurmat qilish;
- o‘z manfaatlaridan o‘zgalar manfaatlarini ustun qo‘yish;
- mehnatsevarlik.

Bu fazilatlar xalqimizning mintalitetiga, ya’ni tabiatiga singib ketgan. Har bir oilada ularga amal qilishga harakat qilinadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy vazifasi o‘quvchilar ongiga ana shu fazilatlarni chuqurroq singdirishdan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini halqimizga xos bo‘lgan quyidagi *odatlarni* singdirish taqozo etiladi:

- jamao bo‘lib yashash;
- qo‘shnini hurmat qilish;

- yaxshilikni baham ko‘rish;
- molparastlik va boylikka o‘ch bo‘lmaslik;
- halol mehnat evaziga yashash;
- biror kasb yoki hunarning egasi bo‘lish.

Mazkur odatlар xalqimizning milliy tabiatiga mos ekanligini xorijlik mutafakkirlar ham e’tirof etadi. Misol uchun, buyuk qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov “Qiyomat” asarida “o‘zbeklarning odatlari turkiy xalqlar uchun Bobil vazifasini o‘tagan”, - deb yozadi. Ma’lumki, insoniyatning madaniylashuvi hozirgi Osiyoda mavjud bo‘lgan Bobil nomli davlatdan boshlangan. Ya’ni insoniyat vahshiylig tuzumidan insoniylik tuzumiga o‘tgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar xalqimizga xos bo‘lgan quyidagi *madaniy turmush-tarz* an’analari bilan tanishtirilishi kerak:

- hamisha pok yurish, pok kiyinish va pokizalikka rioya qilish;
- muhtojlarga moddiy va ma’naviy yordam berish;
- o‘ziga ravo ko‘rganni o‘zgalarga ham ravo ko‘rish;
- oziq-ovqatlarni birovlar bilan baham ko‘rish;
- odamlarga yaxshi va yomon kunlarida bir xil munosabatda bo‘lish;
- oilani muqaddas bilish.

Bu an’analalar o‘quvchilar ongini nafaqat ijtioiylashtiradi, balki ularda milliy ruhning tarkib topishida muhim o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ana shu tayanchlarga asoslaniladi. Ayni paytda, mamlakatimizda yashayotgan 130 millat va elatlarning milliy qadriyatlariga ham hurmatda bo‘lish ruhi o‘quvchilarga singdiriladi. Chunki bu xalqlarning milliy qadriyatları ham xalqimizning qadriyatlariga mos tushadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar ongiga umuminsoniy qadriyatlarini singdirish. Ong – bu shaxsning miya organida yuzaga keladigan tushunchalari, fikrlari va odatlari majmuidir. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongi pedagoglarimiz to‘g‘ri ta’kidlashganidek, yozilmagan oq qog‘ozga o‘xshaydi. Mazkur masala 7-11 yoshli o‘quvchilar ongiga maqsadli va muddaoli qadriyatlarini shakllantirishni taqozo etadi. Bu borada *umuminsoniy qadriyatlar* ham muhim o‘rin tutadi.

Umuminsoniy qadriyatlar – bu dunyoda yashovchi xalqlarning tajribasidan o‘tib o‘zgalar tomonidan qabul qilingan yondashuvlar

majmuidir.⁷ Shu sababli Prezidentimiz yoshlar tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berishni tavsiya etadi.⁸

Rus pedagogika va psixologgi A.Rubnshteyn ongning miya, aql va his-tuyg'udan iboratligini ta'kidlaydi. Shu sababli 7-11 yoshli o'quvchilar ongini shakllantirishda quyidagi umuminsoniy qadriyat-larning o'rni muhimdir:

- birodarlik;
- tinchliksevarlik;
- bag'rikenglik.

Birodarlik qadriyati barcha halqlar uchun zaruriyat bo'lib, unda har bir xalqning buguni, o'tmishi va kelajagiga oid yondashuvlar ifodalanadi. Shu sababli Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim dasturlarida umuminsoniy birodarlik qadriyatini har bir xalq va millatning farzandlari o'zlashtirishi qayd etilgan.

Tinchliksevarlik qadriyati insoniyatning hayotida muhim o'rincutadi. Shu sababli jahon Pedagogika fanida shaxsning ongiga tinchliksevarlik qadriyatini singdirish birlamchi masalalardan hisoblanadi. Biroq, bugungi kunda rivojlanish jarayonidan ortda qolayotgan mamlakatlarda yoshlarning tarbiyasida tinchliksevarlik qadriyatini singdirish sust kechmoqda. Shu sababli bugungi kunda pedagog olimlar Afg'oniston, Suriya kabi mamlakatlardagi yoshlarning tinchliksevarlik qadriyati ko'nikmasi past ekanligidan tashvish bildirmoqda. Mamlakatimizda bu qadriyat ta'lim siyosatining asosiy tayanchlaridan biri sifatida belgilangan.

Bag'rikenglik shaxsda diniy, milliy va umuminsoniy g'oyalarni shakllantirishga asoslanadi. Bag'rikenglikning diniy mazmuni bir jamiyatda turli dinlarga e'tiqod qilish bilan belgilanadi. Bag'rikenglikning milliy mazmuni bir jamiyatda turli xalqlar va elatlarning birga yashashi bilan izohlanadi. Bag'rikenglikning umuminsoniy mazmuni dunyodagi barcha xalqlarning o'zaro do'stligi va hamkorlikda yashashidan iborat. Bu g'oyalarni boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga singdirilsa, kelgusida uni o'z jamiyati va insoniyat hayoti uchun mas'uliyat sezadigan shaxslar sifatida shakllanadi.

⁷ Қаранг: Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли лугати. – Тошкент, 2009

⁸ Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий гоямизнинг пойдеворидир. – Тошкент, 2021.

Umuman O‘zbekistonning ta’limga oid davlat siyosatida umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanganlik darajasini baholash. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning samarasi o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorlarligi bilan baholanadi. O‘zbekistonning hozirgi ta’lim tizimida boshlang‘ich sinfni bitiruvchilar ta’limning quyidagi turlariga tayyorlanadi:

- o‘rta umumta’lim mакtablariga;
- Prezident maktablariga;
- ijod maktablariga;
- ixtisoslashtirilgan maktablariga.

Bu ta’lim turlariga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tayyorlash jarayonida aynan ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanganligi muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bu qadriyatlar asosida tarbiyalanganlik darajasini baholashning quyidagi *indikatorlarini* belgilash mumkin:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy qadriyatlarni bilishi;
- mazkur toifa o‘quvchilarning umuminsoniy qadriyatlardan xabardorligi;
- o‘quvchilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilish ko‘nikmasiga egaligi;
- o‘quvchilarning o‘z millati va o‘zga millatlarni hurmat qilishi.

Bu indikatorlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanganlik darajasini belgilab beradi. Shu sababli boshlang‘ich sinf Sinf rahbarlarining vazifalari kengayadi va yaqinda qabul qilinishi kutilayotgan “O‘qituvchi maqomi” to‘g‘risidagi Qonuni asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini o‘rganib borish Sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanmoqda.

Pedagogik adabiyotlarda “indikator” tushunchasi ta’lim va tarbiyaning sifat ko‘rsatkichini belgilovchi atama sifatida ishlataladi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ishida aynan indikatorlarga, ya’ni ushbu ruhda tarbiyalanganlik darajasining sifat ko‘rsatkichiga e’tibor berish muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagilarga asoslanish lozim:

- o'quvchi ongi va yurish-turishida xalqimiz tabiatiga xos bo'lgan milliylik, urf-odat va odoblar majmuining shaklanayotganligi;
- o'quvchi axloqida va axloqiy munosabatlarda xalqimizning madaniyatida mavjud bo'lgan o'zgalarni hurmat qilish, shaxsiy manfaatlarni ustuvor qo'ymaslik va o'zgalarga doimo yordamga tayyor turish kabi umuminsoniy yondashuvlar shakllanayotganligi;
- o'quvchining xatti-harakati va jamoaga moslashuvida jamoaning tartib-intizomiga va umumiy harakatlariga moslik shakllanayotganligi;
- o'quvchining dunyoqarashida o'zlikni anglash va indeal maqsad-muddaoлага intilish xislatlari shakllanayotganligi.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ishini indikatorlar asosida amalga oshirish imkoniyatlarini beradi. Shu sababli bu asoslar aynan oliy pedagogik ta'lif jarayonida talabalar tomonidan o'zlashtirilishi shart.

Umuman milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashi, axloqi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish jamiyatning eng muhim ehtiyojlaridan biri hisoblanadi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ongiga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish qanday shakllarda amalga oshiriladi?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanganlik darajasini baholash indikatorlarini bilasizmi?
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir" (Toshkent, 2021) kitobini o'qib chiqing.

4-MAVZU: TARBIYADA MILLIY G‘OYA ASOSLARI

Reja:

1. O‘zbekistonning yangi milliy g‘oyasi
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida milliy g‘oya asoslari
3. O‘quvchilarining milliy g‘oya asosida tarbiyalanganligini aniqlash indikatorlari

Tayanch tushunchalar:

Tarbiya, milliy g‘oya, asos, bilim, tushuncha, uquv, ko‘nikma, shakllantirish, ko‘niktirish, yo‘naltirish.

O‘zbekistonning yangi milliy g‘oyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifi va tashabbusi bilan 2021 yilda O‘zbekistonning yangi milliy g‘oyasi qabul qilindi⁹. Bu yangi milliy g‘oyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- insonparvarlik;
- ezgulik;
- buniyodkorlik.

Insonparvarlik g‘oyasining mazmuni insonni qadrlash, uning sha’nini hurmat qilish, huquqlarini ro‘yobga chiqarish va unga munosib hayot sharoitini yaratib berish tashkil etadi. Insonparvarlik g‘oyasi ta’lim tizimida bolaparvarlik, bola huquqlarining ustuvorligi va bolaga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish bilan ro‘yobga chiqadi. Ayni paytda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongida insonparvarlik g‘oyasi shakllantiriladi va ular insonni sevishga hamda hurmat qilishga ko‘niktiriladi.

Ezgulik g‘oyasining mazmunini “Avesto” kitobimizda belgilanganidek, ezgu niyat, ezgu fikr va ezgu amal tashkil etadi. Bunda ezgu so‘zi yaxshilik, yaxshilik va yomonlikni farqlash, imkon qadar yaxshilikka intilish ma’nolarini anglatadi. O‘zbekiston pedagogik tajribasida Ezgulik g‘oyasi tarbiya jarayonining negizi sifatida qabul qilingan. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongi va axloqida yaxshi niyat, to‘g‘ri fikrlash va orzu-umidlarni

⁹ Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий гоямиззинг пойдеворидир. –Тошкент, 2021

shakllantirish bilan Ezgulik g‘oyasi asosida tarbiya jarayoni amalga oshiriladi.

Bunyodkorlik g‘oyasining mazmuni har bir kishining erkin va farovon yashashi, jamiyatning demokratik tuzumga ega ekanligi hamda xalqning e’tiqod erkinligi huquqi bilan ta’minlanganligidan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongida bunyodkorlik g‘oyasi erkinlik, hurlik va mustaqil fikrlikka ko‘niktirish bilan singdiriladi.

E’tibor berilsa, O‘zbekistonning yangi milliy g‘oyasida umuminsoniy g‘oyalar va qadriyatlar mujassam bo‘lgan. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda tarbiya jarayonini amalga oshirishda mazkur milliy g‘oyaga asoslanish taqozo etiladi.

Rossiyalik rus mutafakkir pedagogi K.D.Ushinskiy “Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi haqida” nomli asarida XIX asrda Yevropaning quyidagi xalqlarida mavjud bo‘lgan va hozir ham yashovchan bo‘lib kelayotgan quyidagi milliy g‘oyalarning tarbiyadagi ahamiyatini alohida ta’kidlab ko‘rsatadi:

- 1) Germaniyada ta’lim tizimidagi tarbiya jarayonida haqgo‘ylik milliy g‘oyasiga asoslanishi;
- 2) Angliyada har bir shaxsni olıyjanoblik ko‘nikmasi bilan tarbiyalash milliy g‘oyasiga asoslanishi;
- 3) Fransiyada ma‘rifatparvarlik milliy g‘oyasiga asoslanishi;
- 4) AQSHda pragmatizm, ya’ni hayotiy haqiqatlarga asosan milliy tarbiyani amalga oshirishi;
- 5) Italiyada dunyo xalqlarini hurmat qilish milliy g‘oyasiga asosan tarbiya jarayonini amalga oshirishi tahlil qilib berilgan.

Shu jihatdan O‘zbekistonning yangi milliy g‘oyasi tarbiya jarayonining jahon Pedagogikasi tajribasi asosida amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyasida milliy g‘oya asoslari. O‘zbekistonning yangi milliy g‘oyasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod vakillari sifatida tarbiyalanadi. Bu tarbiyaning mexanizmlari quyidagicha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari:

- 1) *ongida* – insonparvarlik g‘oyasining ustuvor bo‘lishi;
- 2) *axloqida* – ezgulik fazilatlarining tarkib topishi;
- 3) *dunyoqarashida* – bunyodkorlik g‘oyalarining shakllanishi.

E’tibor berilsa, milliy g‘oya asoslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongini, axloqini va dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishga

asoslanadi. Shu sababli 7-11 yoshli shaxslarning milliy g‘oya asosida tarbiyalash boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari va ayniqsa, “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda ilk bor nashr etilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan “Tarbiya” fani darsliklarida aynan milliy g‘oyaning asosiy tamoyillariga tayanilgan.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, milliy g‘oya asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xarakteri ham shakllantirilishi kerak. Bunda pedagogik psixologiyada qabul qilingan temperament-larni milliy g‘oya asosida shakllantirishga asosiy e’tibor qaratilishi kerak. Bu tempetamentlar quyidagilardir:

- sangvinik (bosiqlik);
- xolerik (jo‘shqin);
- melanxolik (tashvishsizlik);
- flegmatik (oqibatlilik).

Bu temperamentlarning shaxs hayotida muhim o‘rin mavjud. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xarakterini shakllantirishda milliy g‘oya asosida aynan ana shu temperamentlarning imkoniyatlariga tayanish kutilgan samarani beradi.

Jahon Pedagogika fani tajribasida shaxsning xarakterini shakllantirishga doir juda ko‘p tajribalar bor. Shulardan biri aniq milliy g‘oya asosida shakllantirishdir. Mamlakatimizda qabul qilingan milliy g‘oyamizning shaxs xarakterini shakllantirishdagi o‘rni masalasiga doir nazariy-metodologik ishlanmalar yaratish taqozo etiladi.

O‘quvchilarining milliy g‘oya asosida tarbiyalanganligini aniqlash indikatorlari. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy g‘oya asosida tarbiyalash tarbiya jarayonining negizini tashkil etadi. Ammo asosiy masala o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini aniqlash bilan bog‘liqdir. Chunki bugungi o‘quvchi Internet vositasida juda ko‘p va keng axborotlar olamida yashamoqda. Bu axborotlarning nisbatan ko‘pchiligi haqqoniylikdan yiroqligi ma’lum. Masalan, Internet tarmoqlarida vahshiylilik, hudbinlik va o‘zni unutishga da’vat qiluvchi mulbtimediya axborotlari bor. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy g‘oya asosida tarbiyalanganligini aniqlash indikatorlari shakllantirilishi lozim.

Mazkur masalada bizning yondashuvimiz quyidagicha: maxsus tuzilgan So‘rovnoma asosida o‘quvchilarning milliy g‘oya asosida tarbiyalanganligini quyidagi indikatorlar asosida aniqlash mumkin:

- 1) bolaning ongida insonparvarlik tushunchasining mavjudligi;
- 2) bolaning axloqida ezzulik fazilatlarining tarkib topayotganligi;
- 3) bolaning dunyoqarashida bunyodkorlik tushunchasining shakllanganligi.

Bu indikatorlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy g‘oya asosida tarbiyalanganlik darajasini belgilaydi. Bu o‘rinda e’tiboringizga namuna sifatida quyidagi Savolnomani taqdim etamiz:

1. Siz o‘rtog‘ingizga yaxshilik qilishni istaysizmi?

- A. Ha
- B. Yo‘q
- V. Bilmayman

2. Siz odamlar bilan birga bo‘lishni hoxlaysizmi?

- A. Bilmayman.
- B. Yo‘q
- V. Ha.

3. Siz sinfdoshlaringiz bilan sinf tozaligiga va mакtabning ozodaligiga rioya qilasizmi?

- A. Xa
- B. Ba’zan
- V. Yo‘q.

Bunday savollar tarkibi qisqa, aniq va o‘n beshtadan oshmasligi lozim. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qisqa savollarga aniq javob berish psixologiyasiga ega. Sinf rahbari aynan mana shu qoida asosida “Tarbiya” fani o‘qituvchisi bilan o‘quvchilarning milliy g‘oya asosida tarbiyalanganlik darajasini har chorak ohirida o‘rganib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday o‘rganish natijasida o‘quvchilarning kelgusi tarbiya jarayoni yo‘nalishlari belgilab olinadi.

O‘zbekiston yangi taraqqiyotinig hozirgi bosqichida o‘quvchilarni, ayniqsa 1-sinf o‘quvchilarini milliy g‘oya asosida tarbiyalashda amaliy jihatlarga e’tibor berish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chunki bugungi kunga qadar amalga oshirilgan milliy g‘oya asosida yosh avlodni tarbiyalash jarayonida nazariy yondashuvning ustuvor bo‘lib kelganligi ma’lum. Shu sababli bugungi kunda yangi milliy g‘oyamiz asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda amaliy jihatga alohida e’tibor berish taqozo etiladi. Bu borada

pedagogik vositalardan biri Ijtimoiy so‘rovnoma metodidan oqilona foydalanish lozim.

Ijtimoiy so‘rovnoma maxsus tuzilgan savollar asosida amalga oshiriladi va unda o‘quvchilarning javoblari to‘liq aks etadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilar so‘rovnoma savollariga ochiq, to‘liq va mustaqil javob berishlari tajribadan o‘tgan. Shu sababli har chorakda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy g‘oyamiz asosida tarbiyalash jarayoni Ijtimoiy so‘rovnoma asosida o‘rganib borilishi taqozo etiladi. Uning natijalariga asosan milliy g‘oya asosida tarbiyalashning navbatdagi tadbirlari, yo‘nalishlari va tuzatish ishlari belgilab olinadi. Natijada boshlang‘ich sinf bitiruvchilarini ta’limning keyingi bosqichiga milliy g‘oya asosida tarbiyalanganlik ko‘nikmasi bilan o‘tadi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini Ijtimoiy so‘rovnoma pedagogik metodining barcha jihatlarini chuqur o‘zlashtirishi muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy g‘oya asosida tarbiyalash jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik faolligini taqozo etadi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. O‘zbekistonning yangi milliy g‘oyasining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyasida milliy g‘oya asoslarini nimalar tashkil etadi?
3. O‘quvchilarning milliy g‘oya asosida tarbiyalanganligini aniqlash indikatorlarini bilasizmi?
4. Rus pedagogi K.D. Ushinskiyning “Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi haqida” asarini (Toshkent, 1959) va o‘zbek pedagog olimi M.Quronovning “Milliy tarbiya” kitobi (Toshkent, 2007) bilan tanishib chiqing

5-MAVZU: TARBIYANING ASOSIY TAMOYILLARI VA METODLARI

Reja:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida pedagogik tamoyillar
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida psixofiziologik va ijtimoiy tamoyillar
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasi metodlari

Tayanch tushunchalar:

Tarbiya, tamoyil, boshlang‘ich, o‘quvchi, pedagogik, psixofiziologik, ijtimoiylik, bilim, ko‘nikma, uquv.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida pedagogik tamoyillar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash jarayoni o‘ziga xos tamoyillarga asoslanadi. Bunda asosiy e’tibor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy, yosh, aqliy va ruhiy imkoniyatlariga qaratilishi kerak. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida quyidagi *pedagogik tamoyillarga* asoslanish zarurat hisoblanadi:

- bola shaxsini hurmat qilish;
- bolaning imkoniyatlarini hisobga olish;
- bolani yo‘naltirish;
- bolani ko‘niktirish.

Bu pedagogik tamoyillar o‘quvchilarning shaxsida mavjud bo‘lgan tug‘ma his-tuyg‘ularni rivojlantirish bilan amalga oshiriladi.

Mazkur o‘rinda ushbu ko‘nikmalarning quyidagi mazmuniga e’tibor bering:

- a) *bola shaxsini hurmat qilish:* bolaga xos xarakterni, qiliqlarni va intilishlarni tabiiy qabul qilish;
- b) *bolaning imkoniyatlarini hisobga olish:* bunda bolaning jismoniy, aqliy, ruhiy va sensor xususiyatlarini bilish;
- v) *bolani yo‘naltirish:* bolani fazilatlar, hislatlar va bilish jarayoni sari yo‘naltirish;
- g) *bolani ko‘niktirish:* bolani tarbiya olish, bilimni egallash va o‘zgalar bilan ijtimoiy munosabatga kirishishga yo‘naltirish.

Bunday yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida amalga oshiriladigan va suyaniladigan pedagogik tamoyillar

o‘zlashtiriladi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ana shularni o‘zlashtirish tavsiya etiladi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilar tarbiyasida pedagogik tamoyillarga asoslanish bo‘yicha o‘ziga xos tajribalar mavjud. Bu tajribalarning negizini ilg‘or va fidoiy boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyati tashkil etadi. Ta’lim tizimining barcha bosqichlariga nisbatan boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchilar pedagogik tamoyillarga qat’iy amal qilishi bilan ajralib turadi. Shu sababli oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar pedagogik tamoyillarni ko‘nikma va malaka sifatida o‘zlashtirishi shart. Buning uchun Ustozlardan tushunmaganlarini va bilmaganlarini so‘rash, pedagogik va malakaviy amaliyot davrlarida faol bo‘lish kerak. Pedagogik tamoyillarni o‘zlashtirish jarayonida amaliyotda o‘rganganlarini sinab ko‘rish muhim o‘rin tutadi. Hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim metodikasida nazariya va amaliyot uyg‘unligiga asoslanish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar tarbiyasida psixofiziologik va ijtimoiy tamoyillar. Mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashning nazariyasi va metodikasi takomillashib bormoqda. Bunda milliy pedagogik tajriba va halqaro ta’lim dasturlari talablariga asoslanish asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilar tarbiyasida psixofiziologik tamoyillarga amal qilish samarali bo‘lishini ta’kidlash joiz.

Jahon Pedagogikasi fanida quyidagi psixofiziologik tamoyillar alohida ta’kidlanadi:

- 1) o‘quvchilarning jinsini hisobga olish (o‘g‘il va qiz bolalarga xos bo‘lgan fazilatlarni shakllantirish);
- 2) o‘quvchilarning jismoni, aqliy va ruhiy uyg‘un rivojlanishini amalga oshirish;
- 3) o‘quvchilarning tug‘ma layoqatlarini rivojlantirish;
- 4) o‘quvchilarning bilim olish va tarbiyalanish masalalari bo‘yicha estetik didini shakllantirish.

Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilar tarbiyasida psixofiziologik tamoyillarga asoslanish samarali ekanligini ko‘rsatadi. YUNESKO tomonidan e’tirof etilgan “Pedagogika” darsligida (Sankt Peterburg, 2001) o‘quvchilarning psixofiziologik tamoyillarga asosan tarbiyalanishi ularning shaxsida *umummadaniylikni* tarkib topishi tahlil

qilib berilgan. Unga ko'ra, psixofiziologik tamoyillarga asoslangan tarbiya jarayoni natijasida o'quvchi shaxsi madaniylashib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyasida psixofiziologik tamoyillar negizini ularning shaxsida umummadaniylik ko'nikmasini tartib toptirish tashkil etadi. Hozirgi zamon pedagogik kontseptsiyaga ko'ra, umummadaniylik ko'nikmasining asoslari quyidagilardan iborat:

- shaxs o'z jamiyatidagi turli qadriyatlar va madaniy muhitlarga moslashtirilishi lozim;

- shaxs madaniyatlararo muloqot ko'nikmasini egallashi kerak;

- shaxs o'zga xalqlarning urf-odatlari va turmush tarziga oid xususiyatlarni hurmat qilish ruhida voyaga yetishi darkor.

Shu jihatdan mamlakatimizning boshlang'ich ta'linda o'quvchilarining jinsi, yoshi va anatomik imkoniyatlaridan qat'iy nazar ular ana shunday tamoyillar asosida psixofiziologik jihatdan tarbiyalanishi lozim. Buning natijasida o'quvchilarning ongi, axloqi va jismida o'ziga xos xususiyatlar, hislatlar hamda fazilatlar tarkib topadi. Bu hol boshlang'ich sinf bitiruvchilarini keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Pedagog olimlarning umumiyligi fikricha, hozirgi zamon tarbiya jarayonida psixofiziologik tamoyillarga asoslanish o'quvchilarining biologik, fiziologik va ijtimoiy shakllanishini tartibli asosda amalga oshiradi. Shu sababli keyingi besh yil davomida jahon ta'lim-tarbiya jarayonida psixofiziologik tamoyillarning ustuvorligiga ahamiyat berilmoqda. Bu masalada bizning pedagogik manbalarimizda ham tavsiyalar mavjud. Misol uchun, Ibn Sinoning "Donishnoma" asarida bolalarni beshikdan boshlab to 12 yoshgacha psixofiziologik tamoyillar asosida oila va ta'lim muassasasida tarbiyalash metodikasi ishlab chiqilgan. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini mazkur asar bilan tanishishi taqozo etiladi.

Hozirgi zamon globallashuv sharoiti insonning ijtimoiylashuvini, ya'ni jamoatchilik ichida yashash va faoliyat ko'rsatishini ustuvor darajada belgilaydi. Chunki insoniyat oldida turgan ijtimoiy muammlarni faqat ijtimoiy faol shaxslar hal etishi ma'lum. Fransuz pedagogi Albert Kamyun "Jamiyatdan begona" asarida insoniyatning birlashuvi o'quvchilik davridan boshlanishi asoslab berilgan. Shu sababli bugungi kunda butun dunyo ta'lim tizimida tarbiya jarayonida shaxsni ijtimoiylashuvi asosiy masala sifatida olingan.

Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida ijtimoiy tamoyillarga asoslanishini taqozo etadi. Bu tamoyillarning *asosiyлари* quyidagilardan iborat:

- 1) 7-11 yoshli shaxsning ongini ijtimoiylashtirish;
- 2) mazkur toifadagi o‘quvchilarda faollik, tashabbuskorlik va fidoiylik kabi ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish;
- 3) bu toifa o‘quvchilarni ijtimoiy munosabatlarga olib kirish;
- 4) o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmasini shakllantirish.

Mazkur tamoyillar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda muhiti ahamiyatga ega. Bu o‘rinda ushbu tamoyillarning quyidagi mazmuniga e’tibor bering:

a) *boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongini ijtimoiylashtirish*: bunda 7-11 yoshli o‘quvchilar ongida jamiyat ehtiyojlari, ideallari va maqsad-muddaolari ularning imkonipyatiga mos ravishda tarkib toptirib boriladi;

b) *boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fazilatlarni shakllantirish*: bunda ijtimoiy fazilatlar o‘zgalarning manfaatini hisobga olishiga e’tibor beriladi, ya’ni faollik, tashabbuskorlik, fidoiylik kabi fazilatlarda shaxs va o‘zgalarning manfaatlari uyg‘un mujassam ekanligiga diqqat qilinadi;

v) *boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy munosabatlarga olib kirish*: bunda o‘quvchilar sinfdoshlariga, maktab jamoasiga, o‘qituvchilarga va o‘zgalarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishga ko‘niktirib boriladi;

g) *boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy ko‘nikmasini shakllantirish*: bunda o‘quvchilarning jamoada va jamoatchilik orasida o‘zini tuta bilish ko‘nikmalarini shakllantiriladi.

Aynan mana shunday yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida ijtimoiy tamoyillarni tarkib toptirish ishi amalga oshiriladi. Shu sababli oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik turkumdagi fanlar mashg‘ulotlarini chuqur o‘zlashtirishi va mustaqil ta’lim imkoniyatlaridan oqilona foydalanishi tavsiya etiladi. Aslida pedagog kasbi mana shunday ijtimoiy va pedagogik kompetentsiyalarni o‘zlashtirishdan iborat. Hozirgi zamон o‘quvchilari juda yoshlikdan boshlab ijtimoiylashga boshlaydi. Bunda Internet tarmog‘ida berilayotgan axborotlarni o‘rnii muhim. SHu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonini tartibga solib borishi taqozo

etiladi. Bunda aniq, gumanitar va tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida, ayniqsa “Tarbiya” fanini o‘qitish vositasida o‘quvchilar-ning ijtimoiy lashuvini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oldidagi eng muhim vazifa o‘quvchi tarbiyasida yangicha yondashuvlarga tayanishdan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasi metodlari. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida metodlarni belgilash va ularga asoslanish muhim hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy, yosh va ruhiy xususiyatlarini hisobga olish;
- oddiydan murakkablikka qarab rivojlanadigan metodlarni tanlash;
- imkon qadar ta’lim jarayoni va pedagogik tajribalardan o‘tgan metodlarga tayanish;
- zamонавиј техник ђиhozlarga mos tushadigan metodlarni kengroq qo‘llash.

Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida oqilona metodlarni tanlash imkonini beradi. Shu jihatdan bu o‘rinda eng muhim metodlarning tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

1. *Ko‘niktirish metodi.* Tarbiya jarayoni asosan rag‘batlantirish, ko‘niktirish kabi usullarga tayanadi. Aksincha, avtoritar usullar tarbiyaning sifat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jamoaparvarlikka, o‘zgalarni hurmat qilishga va o‘zini tuta olishga ko‘niktirib borilishi kerak. SHu tariqa ularning kelgusi faoliyati uchun bunday ko‘nikma muhim o‘rin tutadi. Ko‘niktirish metodi tarbiya jarayonida ko‘ndirish, tarbiyalanuvchini hurmat qilish va uni tinglash imkoniyatlarini beradi.

2. *O‘rgatish metodi.* Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida bu metod eng muhim yondashuvlarni beradi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari insoniylik, eзgulik,adolat kabi fazilatlarga o‘rgatilishi kerak. Buning uchun o‘quvchilarda uchraydigan egoizm, tushunmaslik, noto‘g‘ri tushunish kabi illatlar bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi kerak. O‘quvchilarni tushunish ularni fazilatlarga o‘rgatishning eng muhim yo‘lidir. Buning uchun o‘qituvchilar hamisha o‘quvchilarni tushunishi taqoza etiladi.

3. *Yo‘naltirish metodi.* Bu metodga ko‘ra, o‘quvchilar ideal maqsad va intilishlarga yo‘naltirilishi kerak. Bilim to‘g‘ri berilsa, tarbiya jarayonida o‘quvchilarda ana shunday intilishlar tarkib topadi.

Keyingi paytlarda pedagogik ilmiy- tadqiqotlarimizda ideal maqsad va uning ahamiyatini tadqiq etish susaygan. Aslida ideal maqsad o‘quvchilar ongida boshlang‘ich ta’limda shakllantirilishi kutilgan samarani beradi. O‘quvchilarning qiziqishi, xohishi va istagi hisobga olingan holda ideal maqsadlarga yo‘naltirilishi tarbiyaning sifatini oshiradi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida oddiy, lekin samara beradigan metodlarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida amal qilinayotgan tarbiya tamoyillari milliy va umuminsoniy xususiyatlarga egaligiga e’tibor berish lozim. Shu sababli hozirgi zamon boshlang‘ich ta’limi istiqbolli mo‘ljallab amalga oshirilayotganligi bilan ajralib turadi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida mazkur masalalarga e’tibor berish va ta’lim tamoyillarini chuqur o‘zlashtirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentsiyalari tarkibiga kiradi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida pedagogik tamoyillar deganda nimalarni tushunasiz?
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida psixofiziologik va ijtimoiy tamoyillarini nimalar tashkil etadi?
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasi metodlari deganda nimalar nazarda tutiladi?
4. Abu Ali Ibn Sinoning “Donishnama” (Toshkent, 1990) asarini o‘qib chiqing.

* * *

Mazkur birinchi modulda tarbiya nazariyasining asosiy masalalari bilan tanishdingiz. Bu modulni o‘zlashtirish bilan 10 kreditga ega bo‘lasiz. Buning uchun har bir mavzu oxirida berilgan mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish va mavzularning matnnini o‘zlashtirish taqozo etiladi.

2-MODUL. “TARBIYA” FANINI O‘QITISH METODIKASINING DIDAKTIKASI

6-MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISH

Reja:

1. Didaktikaning asosiy tamoyillari
2. “Tarbiya” fanini o‘qitish metodlari
3. “Tarbiya” fanini o‘qitish texnologiyalari

Tayanch tushunchalar:

Tarbiya, didaktika, fan, tamoyil, o‘qitish, metod, texnologiya, ilm, ko‘nikma, tushuncha, uquv, tajriba.

Didaktikaning asosiy tamoyillari. “Didaktika” atamasi grekcha bo‘lib, o‘qitish va o‘rgatish ma’nolarini anglatadi. Didaktika deganda ta’lim nazariyasi tushuniladi. Shu jihatdan didaktika pedagogikaning nimaga o‘qitish, nimani o‘qitish va qanday o‘qitish kabi masalalariga javob beradi.

Didaktikaning *asosiy jihatlari* quyidagilardan iborat:

- 1) didaktik vositalar va tarqatmalar: zaruriy jihozlar kompyuter vositalari, modellar va maketlar, ko‘rgazmalar va texnik vositalar;
- 2) didaktik materiallar: pedagogomonidan tayyorlanadigan dars materiallari va mustaqil ta’lim topshiriqlari.

Didaktikaning asosini qobiliyat tashkil etadi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilarning qobiliyatini rivojlantirish ularni didaktik texnologiyalar bilan qurollantirish nazarda tutiladi. Bu o‘rinda didaktikaning asosiy tamoyillarini taqdim etamiz.

Eng avvalo *didaktika nazariyasi* tamoyilini o‘zlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bugungi kunda didaktika nazariyasiga doir quyidagi kontsepsiylar mavjud:

- 1) didaktik qomusiylik konsepsiysi: bunda pedagogik ta’lim bo‘yicha to‘liq ilmiy ma’lumot berish nazarda tutiladi;
- 2) didaktik pragmatizm konsepsiysi: bunda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim berishga asoslaniladi;
- 3) funksional materializm didaktik konsepsiysi: bunda fanlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida ta’lim berishga ustuvor darajada qaraladi;

4) o‘qitishning manfaatli didaktik konsepsiysi: bunda ta’lim oluvchilarning xoxish istaklarini hisobga olgan holda ta’lim beriladi.

Didaktika nazariyasiga oid bu konsepsiyalar asosida o‘qitish jarayoni tashkil etiladi.

Didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri *amaliyotdir*. Bu tamoyil quyidagilarni qamrab oladi:

- 1) dars maqsadini belgilash;
- 2) darsda eng ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llash;
- 3) ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmasini rivojlantirishga e’tibor berish;
- 4) ta’lim oluvchilarning bilim va tarbiya darajasini baholab borish.

Bularning barchasi o‘qitishning maqsadli tashkil etish va unda ko‘zlangan samaraga erishishning asosi hisoblanadi. Shu sababli “Tarbiya” fanini o‘qitish didaktikasini ishlab chiqish zaruriyat bo‘lib turibdi. Mazkur masalada bizning yondashuvimiz quyidagicha:

- “Tarbiya” fanini o‘qitishda tarbiyalanuvchining huquqlarini ustuvor bilish;
- mazkur fanni o‘qitishda eng ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalarga tayanish;
- har chorak so‘ngida fanning o‘qitish natijalarini monitoring qilib borish.

Bunday yondashuv asosida “Tarbiya” fanini o‘qitish didaktikasini maqsadli shakllantirish imkoniyati mavjud.

Mazkur asoslar asosida “Tarbiya” fanini o‘qitishning yangilangan didaktikasini ishlab chiqish imkoniyati bor. Buning uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 oktyabrdagi 235-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Tarbiya” fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari”ga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur Malaka talablarining “Tarbiya” fanini o‘rganish bosqichlariga e’tibor bering:

| Standart darajasi | Ta’lim bosqichi | Darajaning nomlanishi |
|--------------------------|--|---|
| A2 | Umumiyo‘rta ta’lim 4-sinf bitiruvchisi | “Tarbiya” fanini o‘rganishning tayanch darajasi |

E'tibor berilsa, "Tarbiya" fanini o'rganishda boshlang'ich sinflar tayanch daraja hisoblanadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari mazkur fanni o'zlashtirishda quyidagi malakalarga ega bo'lishi kerak:

- mas'uliyat va majburiyatga amal qiladi;
- hislarini anglaydi va nazorat qila oladi;
- mustaqil sog'lom fikrlaydi;
- pul topish va sarflash ko'nikmalariga ega bo'лади;
- liderlik sifatini namoyon etadi;
- kreativ sifatlarini namoyon qila oladi va h.k.

Aynan mana shu malaka talablari asosida "Tarbiya" fanini o'qitishning didaktik asoslarini ishlab chiqish mumkin. Buning natijasida ushbu fanning didaktik asoslari zamon talablari va fanning vazifalarini amalgalashirishga tayanch bo'лади.

"Tarbiya" fanini o'qitish metodlari. Hozirgi zamon O'zbekiston boshlang'ich ta'limida "Tarbiya" fanini o'qitish metodlarini aniq belgilab olish zaruriyat bo'lib turibdi. Mazkur masalada bizning fikrimizcha, *quyidagi* o'qitish metodlari muhim o'rinni tutadi:

- 1) o'qitishning innovatsion metodlariga tayanish;
- 2) "Tarbiya" fanini o'qitishda eng oson va eng qulay metodlarga tayanish;
- 3) mazkur fanni o'qitish jarayonida modellashtirishga asosiy e'tiborni qaratish.

Bu metodlar quyidagi mazmunlarga ega:

a) *o'qitishning innovatsion metodlari*: axborot-kommunikatsion vositalarga tayangan metodlar majmui;

b) *eng oson va qulay metodlar*: maktab sharoitiga mos tushuvchi va o'quvchilarining imkoniyatlarini hisobga oluvchi metodlar majmui (tushuntirish, o'qitish, o'rgatish, o'zlashtirish, yo'naltirish va h.k.);

v) *"Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida modellashtirish*: bunda har bir dars maxsus reja va maxsus metodlar hamda texnologiyalardan foydalangan holda yangicha uslubda o'tkazilishi nazarda tutiladi.

Bunday yondashuv asosida mazkur fanning o'qitish metodlarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirish kutilgan samarani beradi. Shu sababli bu borada bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilari Ustozlar bilan ishslash masalasiga alohida e'tibor berish lozim.

Bugungi kunda "Tarbiya" fanini o'qitishning metodlarini tanlashda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- butun hayot davomida tarbiya olish;

- tarbiya bo'yicha eng yaxshi tajribalarni o'zlashtirish;
- dunyoqarash va axloq uyg'unligiga erishish;
- tarbiyalanuvchining ma'naviy, hissiy, iroda va aql tuyg'ularini rivojlantirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishning o'ziga xos tamoyillarini tanlashga va samarali metodlarga asoslanishga yo'l ochadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodlari butunlay yangicha asosda bo'lishini anglab olishi lozim. Shu jihatdan ta'kidlangan metodlarni negizida quyidagi yo'nalishlar mavjud bo'ladi:

- o'qitish va tarbiyaning qadriyatlarga asoslanishi;
- tarbiyalanuvchining iroda va aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish;
- tarbiyalanuvchida mustaqil fikr va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish.

Bu omillar "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'quv fanining asoslarini tashkil etadi. Chunki bu fan aynan tarbiya masalasida milliy tajribaning ustuvorligiga ahamiyat beradi va o'qitishning halqaro tajribalaridan ijodiy foydalanadi.

Hozirgi zamon jahon Pedagogikasida tarbiya yo'nalishi ko'p hollarda elektron-modulli tizimga o'tmoqda. Bu tizim shaxs tarbiyasida zamonaqiylik va amaliylikni ilk rejaga qo'yadi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tarbiya masalasida milliy va jahon xalqlari tajribasini uyg'un o'zlashtirishi taqozo etiladi.

"Tarbiya" fanini o'qitish texnologiyalari. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishning eng ilg'or texnologiyalariga asoslanish lozim. Shu ma'noda bunday texnologiyalarning *eng muhimlarini* diqqatingizga taqdim etamiz.

1. *O'qitishning elektron-modulli texnologiyasi.* Bu texnologiya an'anaviy va noan'anaviy dars shakllarida kompyuter asosida o'qitishga tayanadi. Unga ko'ra, kompyuterda maxsus dastur vositasida o'qituvchi tomonidan dars materiallari to'liq tayyorlanadi va ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga qarab taqdim etib boriladi. Bu texnologiyada dars materiallarini yangi ma'lumotlar asosida yangilab borish va multimediyali axborotlarni berish imkoniyatlari mavjud.

2. *O'qitishning masofaviy ta'lim texnologiyasi.* Bu texnologiyaga ko'ra, "Tarbiya" fani onlaysiz tarzida o'qitiladi. Unda ta'lim oluvchilar

bevosita virtual aloqaga kirishadi. Ayni paytda, mazkur texnologiyada mustaqil ta’lim topshiriqlari ko‘p bo‘lishi taqozo etiladi. Ta’lim oluvchilar aynan mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishi bilan fanni o‘zlashtiradi.

3. *Ustoz-shogird texnologiyasi*. Bu texnologiyaga ko‘ra, har bir o‘quvchi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga biriktiriladi. Bunda har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchisining tarbiyalanish jarayonini kuzatib boradi va bu ishlarni “Tarbiya” fani o‘qituvchisi muvofiqlashtiradi. Mavjud ta’limga oid me’yoriy hujjatlar asosida o‘quvchisining tarbiyalanganlik darajasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar Maktab rahbariyati tomonidan moddiy rag‘batlantirib boriladi. Mazkur texnologiya boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishda eng muhim yondashuvlardan hisoblanadi.

Hozirgi zamon oliv pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitishning ana shu innovatsion texnologiyalari amalga kiritilmoqda. Shu sababli “Tarbiya” fanini o‘qitish texnologiyalari tanlanayotganligida ana shunday zamonaviy ta’lim va tarbiya texnologiyalarini tanlashga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bugungi tarbiya jarayoni rivolanayotgan texnik vositalarga asoslanishi bilan muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda texnik vositalarga asoslangan texnologiyalar asosida mazkur fanni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirishga diqqat qilish kerak:

- o‘quvchilarga kompyuter, mobil aloqa vositasi o‘qishning va tarbiya olishning tayanchi ekanligini tushuntirish;
- o‘quvchilarning texnik vositalardan bilim olish yo‘lida foydalanishga o‘rgatish;
- texnik vositalarning imkoniyatlarini baholashda ularning axborot manbaiga e’tibor berish madaniyatini shakllantirish.

Buning natijasida texnik vositalarga asoslangan texnologiyalardan “Tarbiya” fanini o‘qitishda oqilona foydalanish malakasiga ega bo‘linadi.

E’tibor berilsa, “Tarbiya” fani didaktikasi butunlay yangicha yondashuvlar, tamoyillar va texnologiyalarga asoslanadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, mazkur fanning didaktikasi o‘ziga xos tarzda va pedagogik tajribalarning ilg‘or yondashuvlari asosida ishlab chiqilishi kerak. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining “Tarbiya” fani didaktikasi

bo‘yicha tushuncha, bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Didaktikaning asosiy tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
2. “Tarbiya” fanini o‘qitish metodlarini nimalar tashkil etadi?
3. “Tarbiya” fanini o‘qitish texnologiyalarini bilasizmi?
4. 1-4-sinf “Tarbiya” darsliklarini o‘rganib chiqing.



7-MAVZU: “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING NOAN’ANAVIY SHAKLLARI

Reja:

1. O‘qitishning noan’anaviy shakllari xususiyatlari
2. “Tarbiya” fanini o‘qitishda xorij tajribasidan foydalanish
3. Tarbiya fanini o‘qitishda individual uslublar

Tayanch tushunchalar:

Tarbiya, fan, o‘qitish, noan’anaviylik, shakl, xususiyat, individual, uslub, bilim, ko‘nikma.

O‘qitishning noan’anaviy shakllari xususiyatlari. Jamiyatning rivojlanishida o‘qitishning noan’anaviy shakllarini amaliyatga tadbiq etish jarayoni kechmoqda. *Noan’anaviy shakl* deganda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar va masofaviy ta’limning shakllari tushuniladi. Bunday ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o‘quv materiallarining erkin tanlanishi va ularning amaliyot bilan bog‘liqligi;
- ta’lim oluvchilarining erkin munosabatda bo‘lishi;
- ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilarining faolligi;
- ta’lim va tarbiyada amaliy samaraga erishishning mavjudligi.

Shu sababli bugungi kunda o‘qitishning noan’anaviy shakllariga alohida e’tibor berilmoqda. Misol uchun, ana shunday shakllardan biri auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlardir. Bunday mashg‘ulotlarning quyidagi turlari o‘qitish jarayonida maqsadga erishish imkonini beradi:

- “Tarbiya” fani bo‘yicha maxsus kurslar, to‘garaklar va klublar tashkil qilish;
- muzeylar va sayohat maskanlarida tarbiya masalalari bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etish;
- jamiyatimizning eng mashhur kishilari bilan suhbatlar va uchrashuvlar tashkil qilish;
- tarbiya jarayonida muvaffaqiyatga erishayotganlarni axborot-kommunikatsion vositalari orqali namuna sifatida ko‘rsatib borish.

O‘qitishning bunday noa’anaviy shakllari ta’limning amaliy jihatini kuchaytiradi.

Mazkur fanning noan'anaviy o'qitish shakllaridan foydalanishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

- har bir mavzuni imkon qadar auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar vositasida amaliy jihatdan mustahkamlash;

- mavzular bo'yicha ta'lim oluvchilarining og'zaki va yozma tashabbuslarini hisobga olgan holda muntazam yangi ma'lumotlar bilan boyitib borish;

- mavzular bo'yicha mutaxassislarning takliflari va ularning ishtirokidagi mashg'ulotlarni kengaytirib borish;

- mazkur fanning amaliy mashg'ulotlarini noan'anaviy shakllarda o'tkazish.

Bunday yondashuv "Tarbiya" fanini noan'anaviy shakllarda o'qitish vositalari hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'qitishning noan'anaviy shakllari amaliyatga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatga ega. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur fanni noan'anaviy o'qitish shakllariga asosan ta'lim berish asoslari bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga yetarli darajada nazariy bilim va ko'nikma berish taqozo etiladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, o'qitishning elektron-modulli tizimi sharoitida noan'anaviy mashg'ulotlar shakllarini amaliy mashg'ulotlar vositasida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman, amaliy mashg'ulotlarni noan'anaviy shaklda, ya'ni auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar vositasida amalga oshirish samarali hisoblanadi. Shu jihatdan "Tarbiya" fanini noan'anaviy shakllarga asosan talabalarga tushuntirish, ularning mazkur fan bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish va tarbiya ishi jarayoniga tayyorlash amaliy jihatdan kutilgan samarani beradi.

"Tarbiya" fanini o'qitishda xorij tajribasidan foydalanish. "Tarbiya" fani O'zbekiston ta'lim tizimi uchun mutlaqo yangi hodisa hisoblanadi. Shu sababli bu fanni o'qitishda xorij tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda e'tiboringizga eng muhim xorij tajribalarini taqdim etamiz.

Buyuk Britaniyada tarbiya jarayoni psixologik qonuniyatlarga asoslanadi. Unda tarbiyalanuvchilarida oliyanoblik ko'nikmasini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Ayni paytda, ingliz tilining xalqaro tillardan biri ekanligidan foydalanib, tarbiyalanuvchilar dunyoda kasbiy faoliyat ko'rsatishga yo'naltiriladi.

Germaniyada tarbiya jarayonida asosiy e'tibor ideal g'oyalarga qaratiladi. Bunda har bir yosh avlodda ideal g'oya bo'lishiga erishish uchun qisqa va aniq tizimga ega tarbiya jarayoniga asoslaniladi. Shu sababli germaniyalik fuqarolar ko'p hollarda haqgo'yligi bilan ajralib turadi.

Fransiya tarbiya jarayonida shaxsning estetik didini rivojlan-tirishga alohida e'tibor beriladi. Bunda har bir frantsuz kishisi hamma narsadar estetik go'zallik izlash ruhi bilan voyaga yetkaziladi. Shu sababli Fransyaning ta'lim tizimida ma'rifatparvarlik g'oyasi ustuvor hisoblanadi.

Italiya tarbiya jarayonida avlodlar bilan g'ururlanish ruhi ustuvor qo'yiladi. Haqiqatan ham mazkur mamlakatdan yetishib chiqgan Suqrot, Aflatun, Aristotel va Sitseronning insoniyat ta'limiga qilgan hizmati mashhurdir.

Saudiya Arabistonida tarbiya jarayonida shaxsning e'tiqodli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Bunda shaxsda sog'lom e'tiqod, diniy bag'rikengilik va odamlarni tushunuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish bilan yosh avlod voyaga yetkaziladi.

Diqqat qilinsa, mazkur xorij tajribalaridan "Tarbiya" fanini o'qitishda foydalanish muqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada ayniqsa, boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida o'qituvchi maqbul hisoblagan xorij tajribasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Tarbiya bo'yicha Yevropa va Osiyo xalqlari pedagogikasida umumiylilik va farqlilik jihatlari mavjud. Bunda insonni tarbiyalash, uni madaniylashtirish va ijtimoiylashtirish jihatidan umumiylilikka ega, ayni paytda, jismoniy, aqliy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda xorij tajribasida farqliliklar uchraydi. Misol uchun, AQSHda asosan aqliy ko'nikmalarni shakllarntirish va rivojlantirishga urg'u beriladi, Osiyo mamlakatlaridan islom diniga amal qiluvchi davlatlarda aqliy va axloqiy tarbiyaning uyg'unligiga asosiy e'tibor qaratiladi. Shu sababli "Tarbiya" fanini o'qitishda xorij tajribasidan foydalanish uchun quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

- aqliy, axloqiy, jismoniy, ruhiy va estetik tarbiyalarga doir muayyan mamlakatning tajribasini o'rganish hamda uning ilg'or jihatlarini qabul qilish;

- xorij tajribasidan shaxsni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda foydalanish;

- O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasiga asosan xorijning tarbiyaviy ishlar tajribasidan foydalanganda ijodiy yondashish;
- xorij mamlakatlarida o‘ziga xos tajribadan o‘tgan dinlararo bag‘rikenglik, millatlaro totuvlik va elatlar hamda millatlarning qadriyatlarini hurmat qilish ko‘nikmalarini qabul qilish;
- umuminsoniy g‘oyalari bo‘lgan birodarlik va tinchliksevarlik kompetentsiyalarini shaxsda tarkib toptirishga e’tibor berish.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, “Tarbiya” fanimizning negizini ikki tamoyil tashkil etadi: insonparvarlik va demokratlik. Bu tamoyillar mazkur fan vositasida boshlang‘ich ta’limdayoq o‘quvchilar ongida singdirilishi va bunda xorijiy mamlakatlarning tajribalarini hisobga olish zaruriyat hisoblanadi. Chunki dunyodagi barcha xalqlar insonparvarlik va demokratlik qadriyatlarini birlamchi biladi hamda tarbiya jarayonida ana shu tamoyillarni ustuvor darajada belgilaydi. Shu jihatdan “Tarbiya” fani milliylik negizida umuminsoniylik tizimi g‘oyasiga asoslanadi. Bu g‘oyani bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ko‘nikma sifatida qabul qilishi kerak.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda individual uslublar. “Tarbiya” fanini o‘qitishda individual uslublarning muhim o‘rni bor. *Individual uslublar* deganda mazkur fan bo‘yicha o‘ziga xos usul, uslub va yondashuvlarga ega o‘qituvchilarning tajribasi nazarda tutiladi. Shu sababli oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini individual uslub bilan qurollantirish quyidagicha amalga oshiriladi:

- o‘qitishning eng oson, maqbul va samarali uslublari bilan tanishtirish;
- pedagogik va malakaviy amaliyot jarayonida ilg‘or o‘qituvchilarning tajribasi bilan tanishtirish;
- talabada mayjud bo‘lgan uslubni rivojlantirish;
- talabani o‘zi ustida ishlashga ko‘niktirish.

Bunday yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini individual uslubini shakllantirish imkoniyati mayjud.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda individual uslublarni o‘zlashtirish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

- ilg‘or va tajribali o‘qituvchilarning o‘qitish uslublarini o‘rganib borish va ularning mashq‘ulotlarida ishtirok etish;

- pedagogik adabiyotlar orqali mashhur o‘qituvchilarning tajribalarini o‘rganib borish;
- malakaviy va pedagogik amaliyotlar davrida umumta’lim mакtablari o‘qituvchilarining mashg‘ulotlarida ishtirok etish;
- individual uslublar bo‘yicha izlanishlar olib borish.
- Bunday yondashuv bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘qitishning individual uslublari bo‘yicha ko‘nikmani shakkantiradi.
- o‘qitishning individual uslubida mutaxassisning psixologik mahorati ham aks etadi. Shu ma’noda har bir talaba o‘zining ruhiy tajribalari asosida individual uslub bo‘yicha izlanishlar olib borishi kutilgan samarani beradi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish kerak:
 - izlanish jarayonida ruhiy ko‘tarinkilikka amal qilish;
 - o‘zi yoqtirgan individual uslubni o‘rganishga harakat qilish;
 - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik imkoniyatlari bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lish;
 - imkonqadar ijtimoiy psixologiya qoidalarini o‘rganish.

Bunday yondashuv o‘qitishning individual uslublarini o‘zlashtirishda qo‘l keladi. Shuni ta’kidlash lozimki, har bir mohir pedagog aynan individual izlanish tufayli o‘zining o‘qitish uslubiga ega bo‘ladi. Pedagog olimlarning fikricha, individual uslubga ega bo‘lish uchun 3 yil yetarli muddat hisoblanadi. Shu ma’noda “Tarbiya” fanini o‘qitishda har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining individual uslubga ega bo‘lishidan jamiyat manfaatdor hisoblanadi.

O‘qitishning individual uslubi ta’lim va tarbiya jarayonida bir xillikni oldini oladi hamda o‘qitish jarayonida turli xillikni tarkib toptiradi. O‘qitishning turli uslublar, yondashuvlar va yo‘nalishlarga ega bo‘lishi ta’lim va tarbiyaning samaradorligiga olib keladi. Shu sababli “Tarbiya” fanini o‘qitishda individual uslublarning o‘ziga xos amaliy ahamiyati bor. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari individual uslublarni o‘zlashtirishi, bu borada alohida izlanishlar olib borishi va Ustozlar maslahatidan oqilona foydalanishi tavsiya etiladi.

Kuzatishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda o‘zining individual uslubiga ega boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ko‘p. Ayni paytda, axborot-kommunikatsion vositalar asosida ularning uslublarini targ‘ib qilish, pedagogik turkumdagи o‘quv adabiyotlarida bunday o‘ziga xos uslublarni tahlilini berish va ana shunday uslubga

ega o‘qituvchilarning oliy ta’lim muassasasi bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, bu borada Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Chirchiq shahri va viloyatning tumanlarida “O‘qish va matematik savodxonlik sinfi”, “Pedagoglar sinfi”, “Kelajak o‘qituvchisi” kabi amaliy tizimlar tashkil etilgan. Buning natijasida o‘quvchilar va o‘qituvchilarning institut bilan hamkorligi talab darajasida yo‘lga qo‘yilgan. Natijada Toshkent viloyatining maktablarida faoliyat ko‘rsatayotgan individual uslubiga ega o‘qituvchilarning tajribalarini targ‘ibot qilish imkoniyatlariga ega bo‘linmoqda.

Shunday qilib, “Tarbiya” fanini o‘qitishda noan’anaviy shakllarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘qitishning noan’anaviy shakllarini o‘zlashtirishi taqozo etiladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. O‘qitishning noan’anaviy shakllari xususiyatlari deganda nimalarni tushunasiz?
2. “Tarbiya” fanini o‘qitishda qaysi xorij tajribalarini bilasiz?
3. Tarbiya fanini o‘qitishda individual uslublar qanday xususiyatlarga ega bo‘ladi.
4. “Mening uslubim” mavzusida insho yozing.



8-MAVZU: “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING MASOFAVIY TA’LIM SHAKLI

Reja:

1. Masofaviy ta’lim xususiyatlari
2. “Tarbiya” fanini o‘qitishda masofaviy ta’limning o‘rni
3. Masofaviy ta’lim vositasida “Tarbiya” fanini o‘qitish samaradorligi

Tayanch tushunchalar:

Ta’lim, tarbiya, masofa, o‘qitish, shakl, xususiyat, vosita, yondashuv, bilim, ko‘nikma.

Masofaviy ta’lim xususiyatlari. Masofaviy ta’lim o‘qitishning o‘ziga xos shakllaridan biri bo‘lib, unda ta’lim va tarbiya jarayoni virtual asosda amalga oshiriladi. Pedagog olimlarning fikricha, masofaviy ta’limni quyidagilarga tayangan holda amalga oshirish samarali hisoblanadi:

- televideiya orqali;
- radio orqali;
- kompyuter texnikasi vositasi orqali;
- ixtisoslashgan texnik jihozlar vositasida.

Masofaviy ta’limning bu vositalari murakkab sharoitlarda ham juda qo‘l keladi. Misol uchun, COVID-19 pandemiya sharoitida mamlakatimiz ta’lim tizimida televideenie orqali o‘qitish jarayoni tashkil etildi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bunday ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qiziqish va hoxish bilan ishtirop etdi. Ularning o‘zlashtirish darajasi ham qoniqarli bo‘ldi. Shu jihatdan onlayn shakldagi masofaviy ta’lim kutilgan samarani beradi.

Masofaviy ta’limda quyidagilarga amal qilish birlamchi hisoblanadi:

- ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarining faolligi;
- o‘quv materiallarining qulayligi va takomillashtirilib boruvchanligi;
- o‘qitishning multimediya, animatsiya shakllaridan foydalanishning mavjudligi;
- matbuot vositalari orqali o‘quv materiallarini shakllantirish imkoniyatlarining borligi;

- masofaviy ta’lim vositasida ta’lim va tarbiyani ommalashtirish.

Umuman, masofaviy ta’lim hozirgi zamon ta’lim va tarbiya jarayonining zamonaviy shakllaridan biri hisoblanadi. Bu ta’lim shakliga dunyoning ko‘pchilik mamlakatlari amal qilmoqda. Misol uchun, Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashabbusi bilan “Hayot davomida ta’lim olish” dasturi amalga kiritildi. Unga ko‘ra, inson butun umri davomida ta’lim olishi mumkin va bu g‘oya O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ham aks etgan. Mazkur g‘oyani amalga oshirishda masofaviy ta’lim asosiy o‘qitish shakli hisoblanadi. Shu jihatdan “Tarbiya” fanini o‘qitishda ham masofaviy ta’limning muhim o‘rnii bor. Masalan, katta yoshli shaxsning tarbiyaga oid muammolari, savollari va murojaatlari aynan masofaviy ta’lim vositasida hal etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining masofaviy ta’lim asoslarini chuqur o‘zlashtirilishi taqozo etiladi.

Masofaviy ta’lim quyidagilarga asoslanib amalga oshiriladi:

- 1) masofaviy ta’lim o‘qishga ijobjiy yondashuvni tarkib toptiradi;
- 2) pedagogik jarayoni maqsadi sifatida ta’lim oluvchiga yo‘nalish berishga amal qilinadi;
- 3) metodologik, nazariy va uslubiy bilimlarni qulaylashtirilgan tarzda beriladi;
- 4) bilim faoliyatini mustaqil tashkil etishga amal qilinadi;
- 5) ta’limning turli axborotlarini topish va o‘zlashtirishga imkoniyat beriladi.

Shu sababli masofaviy ta’lim o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur ta’lim turining yagona kamchiligi shundaki, shaxsning tarbiyalanganlik darajasini kuzatib bo‘lmaydi. Bunda faqat maxsus o‘rganishlar vositasida shaxsning tarbiyalanganlik darajasini monitoring qilib borish imkoniyati mavjud. Eng asosiysi, masofaviy ta’lim vositasida bilim berishni kuchaytirish bilan shaxs tarbiyasida natijaga erishish mumkin.

Masofaviy ta’limni tashkil etishda o‘qituvchi alohida tayyorlarlik ko‘rishi lozim. Bunda o‘quv materiallarini tayyorlash, o‘quvchilarning o‘zlashtirish shakllarini ishlab chiqish va masofadan turib beriladigan ta’limning samaradorligiga erishishga e’tibor berish muhim hisoblanadi. Buning natijasida ta’lim oluvchi masofadan turib bilimlarni o‘zlashtiradi va o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish bilan o‘zining bilim darajasini namoyon etadi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalari rivojlanib borgan sari masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan keng foydalanish amaliyatga kiritilmoqda. Shu sababli oldiy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’limning bu shakllarini kutilgan darajada o‘zlashtirilishi tavsiya etiladi.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda masofaviy ta’limning o‘rni. “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida foydalilanildigan masofaviy ta’limning metodologik asoslarini ishlab chiqish zaruriyat bo‘lib turibdi. Bunday metodologik asoslarning eng muhimlari quyidagi lardan iborat:

1) *masofaviy o‘qitishga kommunikativ yondashuv*: bunda masofaviy ta’lim jarayonida qatnashuvchilarning muloqotlari asosida o‘qitish jarayoni amalga oshiriladi va o‘quv materiallari texnik vositalar asosida taqdim etiladi;

2) *masofaviy o‘qitishda nazoratni amalga oshirish*: bunda masofaviy ta’lim jarayonida ta’lim berishning o‘ziga xos shakllariga asoslaniladi va ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish jarayoni virtual tarzda nazorat qilib boriladi;

3) *masofaviy o‘qitishning axborotli vazifasi*: bunda masofaviy ta’lim jarayonidagi o‘quv materiallari anketa, jadval, diagramma, gistogramma va multimediyalar shakllarda taqdim etiladi;

4) *masofaviy ta’limda o‘qitish vazifasi*: bunda asosiy e’tibor o‘quv fanining mavzularini modullar asosida o‘qitishga qaratiladi.

Bularning barchasi “Tarbiya” fanini masofaviy ta’lim vositasida o‘qitish asoslarini tashkil etadi. Bu o‘rinda e’tiboringizni biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Renessans” nomli kompyuterli texnologiyaga tortamiz.


Mazkur kompterli texnologiyadan masofaviy ta’limda foydalanish kutilgan samarani beradi.

Masofaviy ta’lim vositasida “Tarbiya” fanini o‘qitish samaradorligi. Hozirgi zamон ta’lim jarayonida “Tarbiya” fanini o‘qitishning samaradorligiga erishish yo‘llari ishlab chiqilmoqda. Biz bu borada quyidagi yondashuvlarni taqdim etamiz:

- umuta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Tarbiya” fani mavzularini o‘zaro bog‘liqlik va uzviylik tamoyillari asosida tuzish;

- mazkur fanning darsliklarini matniy chuqurlik va dizayn jihatidan estetika talablariga mos ravishda tayyorlash;

- bu fanning boshqa fanlar vositasida amalga oshiriladigan tarbiya ishlarini muvofiqlashtirib borish maqomiga erishish;
- “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining bilimi va malakasini muntazam ravishda oshirib borish;
- mazkur fan o‘qituvchilari va Sinf rahbarlarining tarbiyaga doir vazifalarini maktab Nizomida aniq belgilab qo‘yish.



1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga masofadan turib ta’lim berishning “Renessans” nomli kompyuterli texnologiyasi

Bularning barchasi masofaviy ta’lim vositasida “Tarbiya” fanini o‘qitish samaradorligiga olib keladi. Shu jihatdan o‘rtta umumta’lim mакtablarining “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonini virtual tarmoqlar orqali hamkorligini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, bu borada Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida “Maktab-laboratoriya” tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Unda Toshkent viloyatining o‘rtta umumta’lim mакtablarida amalga oshirilayotgan o‘qitish jarayonining muammolari o‘rganib boriladi va bu natijasida institutda “Pedagogik ta’lim iinovatsion klasteri” tuzilgan. Klaster doirasidagi o‘rtta umumta’lim mакtablarining tajribasi targ‘ibot qilib borilmoqda.

“Tarbiya” fanini masofaviy ta’lim vositasida o‘qitishda quyida-gilarga alohida e’tibor berish lozim:

- ta’lim oluvchilarning, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mavzularni o‘zlashtirishini virtual tarzda izchil nazorat qilib borish;
- fanning mashg‘ulotlarini to‘liq ko‘rgazmali virtual vositalar asosida o‘tkazish;
- tarbiyaga doir ilmiy-o‘quv ishlanmalarni taqdim etish;
- o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ota-onalar va jamoatchilik vositasida o‘rganib borish;
- jamoatchilikning tarbiya ishida ishtirot etishiga erishish.

O‘qitishning masofaviy ta’lim vositasida ta’lim va tarbiya berish qulayliklarga ega bo‘lib, unda ta’lim beruvchilar hamda ta’lim oluvchilar faol ishtirot etadi. Ayni paytda, “Tarbiya” fanini masofaviy ta’lim asosida o‘qitishning metodologiyasini ishlab chiqish taqozo etiladi. Bunday metodologiyani ishlab chiqishda quyidagi hujjalarga asoslanish shart:

- O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar-2030” startegiyasi;
- “Tarbiya” fani uchun umumiyl o‘rtta ta’limning davlat ta’lim standartlari;
- “Tarbiya” fani bo‘yicha umumiyl o‘rtta ta’lim muassasalari o‘quvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari;
- tarbiya bo‘yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning hulosalari.

Bunday yondashuv asosida “Tarbiya” fanini masofaviy ta’lim vositasida o‘qitishning metodologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda masofaviy ta’limning bunday imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan samarani beradi. SHu sababli oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari masofaviy ta’limning turli shakllarini o‘zlashtirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Masofaviy ta’lim xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. “Tarbiya” fanini o‘qitishda masofaviy ta’limning o‘rnini qanday?
3. Masofaviy ta’lim vositasida “Tarbiya” fanini o‘qitish samaradorligining asolarini nimalar tashkil etadi?
4. Yuqorida taqdim etilgan masofaviy ta’limning komp’yuterli texnologiyasini o‘zlashtiring.



9-MAVZU: “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING INKLUYUZIV TA’LIM SHAKLI

Reja:

1. Inklyuziv ta’lim xususiyatlari
2. “Tarbiya” fanini o‘qitishda inklyuziv ta’lim asoslari
3. Inklyuziv ta’lim asosida “Tarbiya” fanini o‘qitishning ahamiyati

Tayanch tushunchalar:

Tarbiya, fan, o‘qitish, inklyuziv, ta’lim, shakl, xususiyat, asos, bilim, ko‘nikma, malaka

Inklyuziv ta’lim xususiyatlari. Inklyuziv ta’lim o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro munosabatlarida tenglikka asoslanadi. Shu jihatdan inklyuziv ta’lim jismoniy va ruhiy imkoniyati cheklangan ta’lim oluvchilarga va to‘liq imkoniyatga ega o‘quvchilarga teng ta’lim berish bilan o‘ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan sobiq “Mehribonlik uylari” o‘quv-tarbiya muassasalari deb nomlandi. Shu sababli o‘quv-tarbiya muassasalarida amalga oshiriladigan ta’lim ham inklyuziv ta’lim shakli hisoblanadi.

Inklyuziv ta’limning quyidagi xususiyatlariga e’tibor berish lozim:

- interfaol ta’lim texnologiyalariga asoslanadi;
- tabaqalashtirilgan o‘qitish amalga oshiriladi;
- individuallashtirilgan dasturlarga asoslaniladi;
- ta’lim oluvchilar guruhlarga bo‘lib o‘qitiladi.

Shu sababli ta’limning bu shakli ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarini tez shakllantirilishi bilan e’tiborga loyiq.

Inklyuziv ta’limga quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar mavjud:

- jismoniy va ruhiy jihatdan imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni maxsus o‘qitish;
- sensor tarbiyani amalga oshirish;
- ta’lim va tarbiya olish huquqini teng ta’minlash;
- mashg‘ulotlarga maxsus yondashish;
- mashg‘ulotlarni tajribali o‘qituvchilar tomonidan olib borilishi.

Dunyo mamlakatlarida inklyuziv ta'limga alohida e'tibor beriladi. Bu borada YUNESKO 1989 yili dunyo mamlakatlariga murojaat bilan chiqib, inklyuziv ta'lim vositasida shaxsni ta'lim va tarbiyasini amalga oshirishni so'radi. Chunki inklyuziv ta'lim shakli shaxsning ta'lim va tarbiyaga oid huquqini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Misol uchun, to'liq nogironligi bo'lgan bolalarni individual tarzda oilada maxsus o'qitish aynan inklyuziv ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli O'zbekiston pedagogik ta'lim jarayonida va ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning imkoniyatlariga tayaniladi. Bu borada pedagog olimlarimizning bir qator ilmiy-tadqiqotlari mavjud. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ana shunday ilmiy-tadqiqotlarni o'rganishi va inklyuziv ta'limning asoslarini o'zlashtirishi tavsiya etiladi.

Inklyuziv ta'limning imkoniyatlaridan foydalanish uchun o'qituvchi faol bo'lishi kerak. Ta'lim oluvchiga muntazam ravishda topshiriq berib borilishi, imkon qadar topshiriqlarning yozma bo'lishi va topshiriq natijalarini nazorat qilib borish asosida inklyuziv ta'lim samaradorligiga erishiladi. Bularning barchasi inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishini taqozo etadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida majburiy (mutaxassislik) fanlarini o'qitishda inklyuziv ta'lim shakllari to'g'risida ko'proq ma'lumot berish zaruriyat bo'lib turibdi. Bundan tashqari "Inklyuziv, masofaviy va integratsion ta'lim shakllari" tanlov fanining ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bugungi murakkab sharoitda ta'limning bu shakllari o'qitish jarayonida juda qo'l keladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga inklyuziv ta'limning asoslari, metodlari va o'ziga xos xususiyatlarini mustaqil ta'lim vositasida chuqur o'rganish tavsiya etiladi. Chunki inklyuziv ta'lim shaklini bilish davlatning ta'lim siyosatini hammaga bir xil tatbiq etishda qo'l keladi.

Inklyuziv ta'limning tez va qisqa muddatda amalga oshirish xususiyati uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli bugungi kunda o'quv-tarbiya muassasalari uchun inklyuziv ta'limni tadbiq etishda zaruriyat bo'lib turibdi.

"Tarbiya" fanini o'qitishda inklyuziv ta'lim asoslari. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishda inklyuziv ta'lim

asoslarini yaxshi bilish va bu ta’lim shaklining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu borada quyida-gilarga e’tibor berish kerak:

1. *Interfaol ta’lim texnologiyalariga asoslanish.* Bu borada “Tarbiya” fanini o‘qitishda imkon qadar o‘quvchilar guruhlarga bo‘lib o‘qitilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda quyidagi texnologiya-lardan foydalanish tavsiya etiladi:

- axborot-kommunikatsion texnologiyalar (multimedya, televiedeniya, virtual aloqa va hakozo);
- kompyuterli texnologiya (darslar kompyuter vositasida o‘qitiladi);
- mustaqil ta’lim texnologiyasi (bunda o‘quvchiga topshiriq beriladi va topshiriqning ijodiy bajarilganligiga ahamiyat qaratiladi).

Bu interfaol texnologiyalar boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini maqsadli o‘qitish imkonini beradi.

2. *Tabaqalashtirilgan o‘qitish.* Inklyuziv ta’limning bu asosidan boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishda quyidagicha foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- imkon qadar o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi;
- har bir guruhgaga mavzular topshiriq sifatida beriladi;
- bajarilgan topshiriqlarning ijodiy yondashilganlik asosida baholash;
- guruhdagi o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini nazorat qilib borish.

Tabaqalashtirilgan o‘qitishning bunday imkoniyatlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasida qisqa mud-datda erishishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari inklyuziv ta’limning tabaqalashtirilgan tarzda o‘qitish shakllarini chuqur o‘zlashtirilishi taqozo etiladi.

3. *Individuallashtirilgan o‘qitish.* Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishda individuallashtirilgan o‘qitish shakli quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- har bir o‘quvchi bilan alohida ishslash;
- har bir o‘quvchining jismoniy va aqliy layoqatlarini rivojlantirish;
- jismoniy va ruhiy imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan alohida ishslash;

- har bir o‘quvchining teng darajada tarbiyalanib borishini nazoratga olish.

Bu imkoniyatlardan boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanining har bir mavzusini o‘qitishda foydalanish tavsiya etiladi.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda inklyuziv ta’lim quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda;
- masofaviy ta’lim jarayonida;
- o‘quv-tarbiya muassasalarida;
- oilada;
- mahalla huzurlarida tashkil etilgan Ta’lim markazlarida;
- yoshlarning jamoatchilik tashkilotlarida.

E’tibor berilsa, bunday mashg‘ulotlar shakllarida shaxsning imkoniyatlaridan qat’iy nazar ta’lim va tarbiyaga qamrab olinishi nazarda tutilgan. Shu jihatdan ana shu shakllar vositasida “Tarbiya” fanini o‘qitish ham kutilgan samarani beradi. Buning uchun oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari inklyuziv ta’lim asoslari bilan qurollantirilishi kerak. Shu ma’noda “Tarbiya” fanini inklyuziv ta’lim asosida o‘qitishning metodologiyasini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Bunday metodologiyani ishlab chiqishda milliy va jahon pedagogikasi tajribalariga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, Germaniya Respublikasida “Inklyuziv ta’lim markazi” faoliyat yuritmoqda. Bu markaz vositasida mamlakatning imkoniyati cheklangan shaxslari ruhiy, sensor va ijtimoiy jihatdan tarbiyalanadi. Markazning har bir umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida filiallari mavjud.

Bizning mamlakatimizda inklyuziv ta’limning o‘quv-tarbiya muassasalarida amalga oshirish tajribasi mavjud. Ana shu tajribalar asosida “Tarbiya” fanini inklyuziv ta’lim vositasida o‘qitish metodologiyasini ishlab chiqish mumkin.

Inklyuziv ta’lim asosida “Tarbiya” fanini o‘qitishning ahamiyati. Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini inklyuziv ta’lim asosida o‘qitish muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘qitish va tarbiya jarayonida quyidagilarga erishish kuzatiladi:

- o‘quvchilarning faol bo‘lishi;
- o‘quvchilarda ijodiy fikrning tarkib topishi;
- o‘quvchilar layoqatining namoyon bo‘lishi;
- dars mavzularining qiziqarli o‘qitilishi;

- o‘qituvchi va o‘quvchining dars jarayonida teng va faol ishtirok etishi.

Bu imkoniyatlar boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini yangicha asoslarda o‘qitish va uning samaradorligiga erishishda qo‘l keladi. Shu sababli inklyuziv ta’limning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini egallash lozim.

Inklyuziv ta’limda tushuntirish, o‘rgatish va kuzatish metodlariga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli oliv pedagogik ta’lim jarayonida inklyuziv ta’lim asoslarini chuqur o‘rganish tavsiya etiladi.

O‘quv-tarbiya muassasalarida “Tarbiya” o‘quv fanini o‘qitishda inklyuziv ta’lim shaklining metodlari, texnologiyalari va yo‘nalishlariga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli bu borada o‘quv adabiyotlarini yaratish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ko‘nikmalilik kompetensiyalarini “Tarbiya” fani vositasida shakllantirish samarali hisoblanadi. Bunda ko‘proq inklyuziv ta’lim vositalariga tayanish amaliy natija beradi.

“Tarbiya” fani umumiy o‘rta ta’lim o‘quv fanlarining ichida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bu fanni o‘qitishda ta’limning turli shakllariga asoslanish taqozo etiladi. Inklyuziv ta’lim mazkur fanni butun jamiyatning yosh avlodini qamrab olish imkonini beradi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, mamlakatimizning inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘qituvchilarining tajribalarini ommlashtirish taqozo etiladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Inklyuziv ta’lim xususiyatlari nimalardan iborat?
2. “Tarbiya” fanini o‘qitishda inklyuziv ta’lim asoslari deganda nimalarni tushunasiz?
3. Inklyuziv ta’lim asosida “Tarbiya” fanini o‘qitishning ahamiyati nimalar bilan belgilanadi?
4. Quyidagi kitobdan inklyuziv ta’lim asoslarini o‘rganining: Xasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent, 2009

10-MAVZU: “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING ELEKTRON-MODULLI SHAKLI

Reja:

1. O‘qitishning elektron-modulli shakli xususiyatlari
2. “Tarbiya” fanini o‘qitishda elektron-modulli shakldan foydalanish
3. Elektron-modulli shakldan foydalanish samaradorligi

Tayanch tushunchalar:

Tarbiya, modul, o‘qitish, elektron, shakl, xususiyatlar, foydalanish, samaradorlik, bilim, ko‘nikma, malaka.

O‘qitishning elektron-modulli shakli xususiyatlari. O‘zbekistonda pandemiya kabi murakkab sharoitlarda ta’lim tizimining noan’anaviy shakllari kashf etildi. Ta’lim va tarbiya berishning bunday shakllari pedagogikamiz tariximi ilk bor qo’llanildi. Shu jihatdan *o‘qitishning elektron-modulli shakli* noan’anaviy ta’lim shakli hisoblanadi.

O‘qitishning elektron-modulli shakli quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- texnik vositalarga tayanishi;
- kompyuter texnikasi imkoniyatlaridan foydalanishi;
- virtual ta’lim berilishi;
- ta’limning asosiy qismini mustaqil ta’lim tashkil etishi;
- o‘qituvchi va ta’lim oluvchining teng faolligi.

E’tibor berilsa, o‘qitishning elektron-modulli shaklida ta’lim oluvchi asosiy vosita hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizning barcha ta’lim muassasalari axborot-kommunikatsion vositalar bilan ta’minlanmoqda. Ayniqsa, umumiyligi o‘rtacha ta’lim maktablarining eng chekka hududlardani tuzulmalari ham bunday vositalar bilan ta’minlanayotganligi o‘qitishning elektron-modulli shaklini amaliyotga jorriy etish imkonini beradi.

O‘qitishning bu shakli asosan kompyuterga tayanganligi uchun ta’lim oluvchilarda hoxish va qiziqish uyg‘otadi. Aynan mana shu xususiyatdan foydalangan holda ta’lim va tarbiyani amalga oshirish samarali kechadi. Shuningdek, o‘qituvchining ta’limiy faolligi oshadi. Chunki o‘qitishning bu shaklida barcha o‘quv materiallari o‘qituvchi

tomonidan kompyuter dasturiga joylashtiriladi va zaruriyat tug'ilganida o'quv materiallarini boyitib boriladi. Shu sababli o'qitishning elektron-modulli shakli zamonaviy talablarga javob berishi bilan ajralib turadi.

O'qitishning elektron-modulli shakli hozirgi zamon Pedagogika fanida muhim o'rinni tutadi. Bunga quyidagilar sabab hisoblanadi:

- bu o'qitish shakli texnik vositalarga asoslanishi va texnik vositalarning imkoniyatlaridan keng foydalanishi bilan ajralib turadi;

- o'qitishning bu shaklida ta'lim oluvchi nisbatan mustaqil xarakat qiladi va uning axborot olishi kengayadi;

- texnik vositalar asosida masofadan turib ta'lim berish imkoniyati ham mavjud;

- bularning barchasi o'qitishning elektron-modulli shakliga bo'lgan qiziqishning ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Ayni paytda, o'qitishning elektron-modulli shaklida asosiy e'tibor ta'lim berishga qaratiladi. Buning natijasida ta'lim oluvchining tarbiyalanganlik darajasini kuzatish cheklanadi. Shu sababli ta'lim beruvchi o'qitish jarayonida ta'lim oluvchini tarbiyalab borishi taqozo etiladi. Bu borada ilmiy-nazariy va amaliy ishlanmalar yaratilmoqda¹⁰.

O'qitishning elektron-modulli shakli bo'yicha xorijiy mamlakatlarda o'ziga xos tajribalar mavjud. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasida oliy pedagogik ta'lim jarayonida nisbatan ko'proq elektron-modulli shaklidan foydalilanadi. Shu sababli bu mamlakatda mazkur ta'lim shaklining o'ziga xos shakllari va tushunchalari ishlab chiqilgan. Bu o'rinda ana shunday tushunchalardan eng muhimlarini e'tiboringizga havola etamiz:

Elektron darslik – fanga oid materiallarni dinamik ravishda talqin qiluvchi va maxsus dasturlardan foydalananib tuzilgan o'quv adabiyoti;

Elektron uslubiy qo'llanma – bu pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta'lim faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatishga mo'ljallangan o'quv adabiyoti;

Elektron shakldagi materiallar – bu elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmalar, elektron ma'ruza matnlari va laboratoriya ishlanmalar majmuidir.

¹⁰ Қаранг: Мардонов Ш. Педагогика фанидан ўқитишнинг электрон-модулли дидактик таъминотини ишлаб чикиш технологияси. –Тошкент, 2021

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mazkur tushunchalarni o‘zlashtirishi va kelgusi faoliyatida o‘qitishning elektron-modulli shaklidan foydalanish ko‘nikmasini egallashi kerak.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda elektron-modulli shakldan foydalanish. Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishda noan’anaviy ta’lim shakllaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Bu borada mazkur yangi fanning an’anaviy ta’lim shakllaridan ko‘ra, noan’anaviy shakllari asosida o‘qitish asosiy vazifalarimizdan hisoblanadi.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda elektron-modulli shakldan foydalanish quyidagilarga asoslaniladi:

- mazkur fanning har bir mavzusi o‘quv materiallari kompyuter dasturida joylashtiriladi;

- o‘quv materiallarini joylashtirishda darslikda berilgan matnlardan tashqari qo‘srimcha ma’lumotlar va axborotlar kiritiladi;

- o‘quv materiallarining oltmish-yetmish foizini mustaqil ta’lim topshiriqlari tashkil etadi;

- o‘quvchilar aynan mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishi bilan mavzularni o‘zlashtirgan hisoblanadi;

- o‘quvchilarning o‘zlashtirganlik darajasi virtual tarzda baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2020 yil 26 oktyabrdagi Buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarbiya” fani bo‘yicha davlat ta’lim standartlari”da mazkur fanni o‘qitishda ta’limning eng zamonaviy shakllariga tayanish belgilangan. Chunki bu fan shaxs hayotidagi eng muhim masala-tarbiyanı amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2020 yil 14 oktyabrdagi 235-sonli Buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarbiya fani uchun umumiyl o‘rtta ta’limning davlat ta’lim standarti”da quyidagilar belgilangan:


- “Tarbiya” fanining asosiy maqsadi ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat;

- mazkur fan o‘qitish jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalaydi;

- fan orqali kadrlarni maqsadli va sifatlari tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasiga asoslaniladi va h.k.

E'tibor berilsa, "Tarbiya" fani davlat ta'lim standartlari aniq belgilangan. Shu sababli ushbu fan bo'yicha elektron-modulli o'quv materiallarini tayyorlashda ularga asoslanish lozim bo'ladi. Misol uchun, "ma'naviy barkamol" tushunchasi bo'yicha tayyorlanadigan elektron-modulli o'quv materialida ma'naviyat, barkamollik va ularning shaxs hayotida tutgan o'rni to'g'risida multimediyali, animatsion va tasvirli ma'lumotlarni tayyorlash taqozo etiladi. Shu sababli "Tarbiya" fanini o'qitishda elektron-modulli shaklning imkoniyatlari keng ekanligini ta'kidlash joiz. Bu o'rinda namuna sifatida "Tarbiya" fani mavzularini elektron-modulli shaklda o'tish texnologiyasini keltiramiz.

"Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy tarbiyasi" mavzusi bo'yicha elektron-modulli ishlanma



Bu elektron-modulli shakl o‘qituvchi tomonidan kompyuterda multimediyali shaklda tayyorlanadi va unda o‘quvchilarga mustaqil ta’lim topshiriqlarini nisbatan ko‘p foizda berishga asosiy e’tibor qaratiladi. O‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirganlik darajasi ham kompyuter vositasida baholanadi.

Elektron-modulli shakldan foydalanish samaradorligi. Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishda elektorn-modulli shakldan foydalanish samaradorligi va uni kuzatib borish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bu o‘rinda ushbu fanni elektorn-modulli shaklda o‘qitishning samaradorlik mexanizmlariga e’tiboringizni tortamiz:

- a) 1-sinfda “Tarbiya” fanini o‘qitishda kompyuterli multimediyali darslardan foydalanish tavsiya etiladi;
- b) 2-sinfda mazkur fanni o‘qitishda mavzularning kompyuter dasturida matni beriladi va asosiy e’tibor o‘quvchilar bajaradigan mustaqil ta’lim topshiriqlariga qaratiladi;
- v) 3-sinfda bu fan bo‘yicha aqliy, jismoniy va ruhiy rivojlanishda ijobjiy ta’sir etadigan multimediyali va tasvirli darslar mavzular bo‘yicha tashkil etiladi;
- g) 4-sinfda bu fan bo‘yicha tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlar asosida ko‘proq multimediyali mashg‘ulotlar olib boriladi va bunda o‘quvchilarning faolligi, ularning yo‘naltirilganligi nazorat qilinadi.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini elektorn-modulli shaklda o‘qitish imkoniyatlaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Shu sababli oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘qitishning elektron-modulli shaklini chuqur o‘zlashtirishi asosiy vazifalardan biridir.

Kezi kelganda eslatib o‘tish joizki, o‘qitishning elektron-modulli shakli bo‘yicha ilmiy, nazariy va metodologik ishlanmalar juda kam yaratilgan. Bu borada ilmiy tadqiqotlar va o‘quv materiallari yaratish endi amalga oshrilmoqda. Shu sababli pedagogik oliv ta’lim jarayonida “Ta’limning elektron-modulli shakli” maxsus kursni tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bunday kurslar o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida ham o‘qitilishi dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki o‘qitishning elektron-modulli shakli murakkab sharoitlarda

ta’lim va tarbiya jarayonini kutilgan darajada amalga oshirish imkonini beradi. Bunday zamonaviy o‘qitish shakllarini o‘zlashtirish har bir pedagogning burchidir.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda elektron-modulli shakldan foydalanish uchun quyidagilarga e’tibor berilsa samarali hisoblanadi:

- muktabning texnik jihozlaridan oqilona foydalanish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompyuter bilan ishslash ko‘nikmasini shakllantirish;
- o‘quv materiallarining qiziqarli va qulay bo‘lishiga erishish;
- imkon qadar axborot-kommunikatsiya vositalar bo‘yicha mutaxassislar ko‘magidan foydalanish;
- o‘quvchilarning mavzularni mustaqil o‘zlashtirishiga ahamiyat berish.

Bunday yondashuv “Tarbiya” fanini elektron-modulli shakldan foydalangan holda o‘qitishning samaradorligiga olib keladi. Bugungi kunda barcha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari texnik jihozlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Shu sababli o‘qitish jarayoniga elektron-modulli kabi noan’anaviy ta’lim shakllarini tadbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. O‘qitishning elektron-modulli shakli xususiyatlari nimalardan iborat?
2. “Tarbiya” fanini o‘qitishda elektron-modulli shakldan foydalanish deganda nimalarni bilasiz?
3. Elektron-modulli shakldan foydalanish samaradorligining asoslari nimalardan iborat?
4. Quyidagi kitobni o‘qib chiqing: Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didaktik ta’minotini ishlab chiqish texnologiyasi. –Toshkent, 2021

* * *

Mazkur ikkinchi modulda tarbiya didaktikasining asosiy masalalari bilan tanishdingiz. Bu modulni o‘zlashtirish bilan 10 kreditga ega bo‘lasiz. Buning uchun har bir mavzu oxirida berilgan mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish va mavzularning matnnini o‘zlashtirish taqozo etiladi.

3-MODUL “TARBIYA” FANINI O‘QITISH METODIKASI AMALIYOTI

11-MAVZU: “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING AMALIY ASOSLARI

Reja:

1. “Tarbiya” fanini o‘qitishning huquqiy asoslari
2. “Tarbiya” fanini o‘qitishning tashkiliy asoslari
3. “Tarbiya” fanini o‘qitishning ijtimoiy asoslari

Tayanch tushunchalar:

Tarbiya, fan, o‘qitish, amaliyat, asos, huquq, tashkiliylik, ijtimoiylik, bilim, ko‘nikma, malaka.

“Tarbiya” fanini o‘qitishning huquqiy asoslari. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning huquqiy asoslarini churqur o‘zlashtirishi lozim.

Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning huquqiy asoslari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2020 yil 26 noyabrdagi Buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim mакtabalarida “Tarbiya” fanini o‘qitishning davlat ta’lim standartlari, malakalari, o‘quv rejalarini va dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori;
- umumiy o‘rta ta’lim maktabalarining 1-11 sinflar uchun “Tarbiya” fani darsliklari;
- “Tarbiya” fani o‘qituvchisining kitobi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bu hujjatlarni o‘zlashtirishi va ularni kasbiy faoliyatida

qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Chunki mazkur huquqiy asoslar "Tarbiya" fanini maqsadli o'qitishda tayanch hisoblanadi. Ko'pgina ilg'or o'qituvchilarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, muayyan fanni o'qitishda huquqiy asoslarga tayanilganligi uchun kasbiy muvaffaqiyatga erishgan. Shu sababli oliv pedagogik ta'lif jarayonida bu huquqiy asoslar mustaqil ta'lif mashg'ulotlari va amaliy mashg'ulotlarning seminarlari vositasida o'zlashtirilishi shart.

"Tarbiya" fanini o'qitish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining quyidagi tarbiya jarayoni amalga oshiriladi:

- o'quvchilarni huquq tushunchalar bilan tanishtirish;
- o'quvchilarining dastlabki bosqichda huquqiy ongini shakllantirish;
- o'quvchilarni huquqiy munosabatlarga o'rgatish;
- o'quvchilarda o'zgalar huquqini hurmat qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Bu ishlarni amalga oshirishda "Tarbiya" fani mashg'ulotlarining amaliy qismlarini sinfdan tashqari mashg'ulotlar vositasida o'tish tavsiya etiladi. Misol uchun, maxsus muzeylarga tashrif chog'ida o'quvchilarining huquqiy tushunchalarini shakllantirish imkoniyatlari yuqoriligi bilan muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchilar muzey eksponatlari orqali ularni asrash, saqlash va ehtiyoj qilish kabi huquqiy tushunchalarga ega bo'ladi.

Qishloq hududlarida joylashgan maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mahalla fuqarolar yig'inlarida mashg'ulot o'tkazish o'quvchilarining huquqiy ongini shakllantirishda qo'l keladi. Chunki mahalla fuqarolar yig'inlarida me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ish yuritish amaliyoti mavjud.

"Tarbiya" fanini o'qitishning huquqiy asoslari amaliyotga yo'naltirilganligi bilan o'ziga xos xususiyatga ega. Mazkur fanning imkoniyatlaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarini maqsadli tarbiyalashda oqilona foydalanish fan o'qituvchisi va Sinf rahbarining asosiy vazifasidir.

"Tarbiya" fanini o'qitishning tashkiliy asoslari. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishning tashkiliy asoslarini mashg'ulotlarni an'anaviy va noan'aviy shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda ayniqsa o'qitishning masofaviy, elektron-modulli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni

paytda, mazkur fanni o‘qitishda ta’limning *Dars shaklidan* oqilona foydalanish kutilgan samarani beradi.

Ta’limning Dars shakli quyidagi asoslarda tashkil etiladi:

- har bir dars “Tarbiya” fanining mavzulari bo‘yicha majburiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaga yo‘naltirilganlik shaklida tashkil etiladi;
- darsning quyidagi didaktik tuzilmasiga qat’iy amal qilish lozim:
 - a) har bir darsning maqsad va vazifasini aniq belgilab olish;
 - b) eng zaruriy topshiriqlarni ishlab chiqish va unda mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilim hamda ko‘nikmani o‘zlashtirishini belgilash;
 - v) mavzu materiallarini yangi ma’lumotlar va axborotlar bilan yoritish;
 - g) mashg‘ulot davomida amalga oshiriladigan suhbat yoki trening shakllarini belgilash;
 - d) dars so‘ngida mashg‘ulotga yakun yasash;
 - e) o‘quvchilarga uy vazifasini berish;
- darsning mazmunini davlat ta’lim standartlari va malaka talablariga qat’iy rioya qilgan holda tashkil etish;
 - har bir darsning o‘ziga xos tuzilmaga ega bo‘lishiga erishish;
 - har bir darsda zamonaviy texnik vosilardan unumli foydalanish.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning tashkiliy asoslarida zamonaviy va texnologiyalarga asoslangan ta’limning Dars shaklidan oqilona foydalanish samarali hisoblanadi. Bunda har bir darsning qiziqarli, esda qolarli va samarali bo‘lishiga erishish tavsiya etiladi.

Hozirgi zamon Pedagogikasida bir necha dars shakllari e’tirof etilgan. “Tarbiya” fanini o‘qitishda bunday dars shakllaridan quyidagilari muhim o‘rin tutadi:

- a) didaktik dars – bunday darsda asosiy e’tibor mavzularining o‘quvchilar tomonidan to‘liq o‘zlashtirilishi va o‘quvchilar odobaxloqqa yo‘naltirilishiga qaratiladi;
- b) rivojlantiruvchi dars – darsning bu shaklida o‘quvchilarning bilim va tushunchalarini rivojlantirib borish nazarda tutiladi;
- v) muammoli dars – bu dars shaklida har bir mavzu bo‘yicha muammollar ishlab chiqiladi va ularning yechimini topish uchun o‘quvchilarga taqdim etiladi;
- g) dasturli dars – bunday dars shaklida kolmpyuter dasturlari asosida mavzularni o‘tish nazarda tutiladi.

E'tibor berilsa, mazkur dars shakllarining barchasi "Tarbiya" fanini o'qitish jarayoniga tatbiq etilishi mumkin. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarli oliv pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik turkumdag'i fanlar vositasida darslar tipologiyasini chuqr o'zlashtirishi taqozo etiladi.

"Tarbiya" fanini o'qitishning ijtimoiy asoslari. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishning ijtimoiy asoslarini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarli chuqr o'zlashtirishi shart.

Mazkur ijtimoiy asoslarning eng muhimlari quyidagilar tashkil etadi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiya ishini amalga oshirishda ularning jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy imkoniyatlarini qat'iy hisobga olish;

- tarbiya darslari va tarbiyaviy tadbirlarni qiziqarli, qulay va oson shakllarda tashkil etish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasi jarayonida ularning huquqlari va qiziqishlarini ustuvor bilish;

- o'quvchilarni ijodiy va mustaqil fikrlashga ko'niktirish;

- o'quvchilarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va tashabbuskor o'quvchilarni rag'batlantirib borish;

- tarbiya ishida jazolash metodidan foydalanmaslik.

Bunday yondashuv ta'lim tizimimizdagi yangi "Tarbiya" fanini o'qitishning ijtimoiy asoslarini tashkil etadi. Chunki bu fan vositasida shaxsning va jamiatning tarbiyaga bo'lgan ehtiyoji amalga oshiriladi. Milliy va jahon halqlarining tarbiyaga oid tajribasi shuni ko'rsatadiki, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining manfaatlari ustuvor qo'yilsa kutilgan samaranı beradi.

"Tarbiya" fanini o'qitishning ijtimoiy asoslari mazkur fan bo'yicha oliv ma'lumotli va professional o'qituvchilar tayyorlashgi taqozo etadi. Shu sababli mazkur "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" fani ishlab chiqildi. Mazkur fan vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining quyidagi kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish nazarda tutiladi:

- "Tarbiya" fanining nazariy, metodologik, didaktik va texnologik asoslari bilan talabalarni qurollantirish;

- tarbiya nazariyasining eng muhim jihatlari va metodlari bilan talabalarni tanishtirish;

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashnirng pedagogik, psixologik va ijtimoiy asoslari bo‘yicha talabalarga bilim berish;

- “Tarbiya” fani vositasida boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish ko‘nikmasi bilan talabalarni qurollantirish.

Bularning barchasi oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini “Tarbiya” fanini o‘qitishga tayyorlashda asos hisoblanadi.

Ayni paytda, mazkur fandan tashqari oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani ham o‘qitilmoida. Ushbu fan vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaviy tadbirdilar bo‘yicha kompetentsiyasi shakllantiriladi. Shu ma’noda ushbu fan “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” fani bilan integratsiyalashuvi taqozo etiladi.

Bugungi kunga qadar ta’lim tizimimizdagi asosiy kamchilik aniq, guumanitar va tabiiy fanlarni o‘qitishda ijtimoiy asoslarni hisobga olmaslik bilan belgilanadi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fani o‘qitishning ijtimoiy asoslarini chuqur o‘zlashtirishi shart.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. “Tarbiya” fanini o‘qitishning huquqiy asoslarini nimalar tashkil etadi?
2. “Tarbiya” fanini o‘qitishning tashkiliy asoslari deganda nimalarни tushunasiz?
3. “Tarbiya” fanini o‘qitishning ijtimoiy asoslari nimalardan iborat?
4. “Tarbiya” fanini o‘qitishning yuqori ta’kidlangan huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy asoslarini o‘zlashtiring.

12-MAVZU: “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING AMALIY MEXANIZMLARI

Reja:

1. “Tarbiya” fanini o‘qitishning klaster mexanizmi
2. Fanni o‘qitishning monitoring mexanizmi
3. Fanni o‘qitishning tayanch mexanizmlari

Tayanch tushunchalar:

Tarbiya, fan, o‘qitish, klaster, mexanizm, monitoring, amaliyot, bilim, ko‘nikma, kompetentsiya.

“Tarbiya” fanini o‘qitishning klaster mexanizmi. “Tarbiya” fanini oliv pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitishda bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy xususiyatlari hisobga olinadi. Shu jihatdan mazkur ta’lim jarayonida “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” predmetini o‘qitishda *klaster amaliy mexanizmi* muhim o‘rin tutadi.

Klaster – bu ta’lim va tarbiya jarayonini ta’lim oluvchilar, ta’lim beruvchilar va bo‘lajak mutaxassislardan manfaatdor muassasalarning hamkorligi asosida amalga oshiriladigan o‘qitishning amaliy mexanizmlaridan biridir. Shu jihatdan oliv pedagogik ta’lim jarayonida “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanini o‘qitishda quyidagi klaster tizimi muhim o‘rin tutadi:

- a) Institut professor-o‘qituvchilarining mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy, metodologik va texnologik hamkorligi;
- b) professor-o‘qituvchilar va talabalarning didaktik, kasbiy va amaliy hamkorligi;
- v) Institutning Toshkent viloyati umumiyligi o‘rtalikta maktablari bilan tashkil etilgan “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri” a’zolari ishtirokida ushbu fanni o‘qitishda amalga oshiriladigan hamkorlik;
- g) Toshkent viloyatining umumiyligi o‘rtalikta maktablari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini bilan mazkur fanni o‘qitishdagi amaliy hamkorligi;
- d) Respublika o‘quv va ilmiy markazlari bilan ushbu fanni o‘qitishdagi hamkorlik;
- e) ilg‘or mutaxassislar bilan mazkur fanni o‘qitishdagi hamkorlik.

O‘qitishning bunday klaster mexanizmida “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi”ni o‘qitishda har bir ishtirokchi o‘z vazifasidan kelib chiqib ishtirok etadi. Misol uchun, umumiy o‘rtta’lim mакtablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari “Tarbiya” fanini o‘qitishdagi tajribalarini taqdim etadi va bu tajribalar oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘zlashtiriladi.

O‘qitishning klaster mexanizmida ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilar teng ishtirok etadi. Bunda o‘qitishning elektron-modulli tizimida “Tarbiya” fanini klaster tizimi asosida o‘qitish quyidagicha tashkild etilishi mumkin:

- umumiy o‘rtta’lim mакtablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hududiy jihatdan xalq ta’limi bo‘limlari, ilmiy markazlar yoki institutlar orqali o‘qitishning kredit-modul tizimiga ularadi;

- institut yoki hududiy ilmiy-o‘quv markazlari o‘quv materiallarini tayyorlaydi va fanning mavzulari bo‘yicha mutaxassislarini jalb etadi;

- institut professor-o‘qituvchilari “Tarbiya” fani bo‘yicha asosiy mutaxassis sifatida klaster doirasiga kiruvchi umumiy o‘rtta’lim mакtablarining o‘quv adabiyotlari bilan ta’minkaydi.

O‘qitishning pedagogik ta’lim innovatsion klasteri bo‘yicha Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida yaxshi tajriba to‘plangan. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 14 apreldagi 213-sonli “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab viloyatning 10 ta umumiy o‘rtta’lim mакtabining 3-4 sinf o‘quvchilari uchun “O‘qish va matematik savodxonlik bo‘yicha sinflar” tashkil etildi. Mazkur klaster tizimi asosida tashkil etilgan sinflarda boshlang‘ich ta’limning halqaro dasturlari asosida tadqiqotlar amalga oshiriladi. Shu jihatdan umumiy o‘rtta’lim mакtablarining boshlang‘ich sinflarida “Tarbiya” fanini mana shunday klaster tizimi asosida o‘qitish fanning amaliy asoslari bo‘yicha muhim ahamiyatga ega. O‘qitishning klaster mexanizmida ta’lim oluvchilar va undan manfaatdorlar teng ishtirok etishi bilan bu fanning amaliy asoslarni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli oliv pedagogik ta’lim jarayonida pedagogik ta’limning innovatsion klaster tizimini barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarga tadbiq etish metodologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, “Tarbiya” fanini o‘qitishga klaster tizimini tadbiq etishning metodologiyasida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- fanni o‘qitishning hamkorligik mexanizmlarini belgilash;
- fan asoslarini belgilashda imkon qadar auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning o‘rnini belgilash va shu asosda fanni amaliy jihatlarini ishlab chiqish;
- o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish;
- har bir o‘quv yili boshida fanning o‘quv materiallarini takomilashtirib borish va bunda mutaxasislarning imkoniyatlaridan foydalanish.

Bunday yondashuv “Tarbiya” fanini klaster mexanizmi asosida o‘qish jarayonini takomillashtiradi.

“Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda klaster mexanizmi nazariya va amaliyotni o‘zaro bog‘lashi bilan ajralib turadi. Shu sababli bu fanni o‘zlashtirishda nazariy, metodologik va amaliy ko‘nikmalar ham nazariy, ham amaliy jihatdan uyg‘un o‘zlashtirilishi kerak. Chunki bu fan kelajakda “Tarbiya” fanini mutlaqo yangicha yondashuvlar asosida o‘qitishda asos bo‘ladi.

Fanni o‘qitishning monitoring mexanizmi. “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanini o‘qitishda o‘qitishning monitoring mexanizmi muhim o‘rin tutadi.

O‘qitishning monitoring mexanizmi amalga oshirilayotgan o‘quv va tarbiya jarayonini nazorat qilish, uning samaradorligini aniqlab borish hamda yondashuvlarni yangilab borishga asoslanadi. “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanini o‘qitishda o‘qitishning quyidagi monitoringi mexanizmlariga amal qilish tavsiya etiladi:

A) mazkur fanning ilmiy-nazariy asoslari talabalar tomonidan qanday o‘zlashtirilayotganligini kuzatib borish;

B) bu fanning metodologik asoslari va kasbiy ko‘nikma kompetensiyalari talabalar tomonidan o‘zlashtirilayotganligining darajasini o‘rganib borish;

V) mazkur fanning har bir mavzusining o‘quv materiallarini yangi ma’lumotlar, axborotlar va yo‘naltirishlar bilan muntazam to‘ldirib borish;

G) ushbu fanning o‘qitayotgan professor-o‘qituvchilarining tajribalarini ommalashtirib borish;

D) mazkur fanni o‘qitishda imkon qadar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari imkoniyatlariga ustuvor darajada ahamiyat berish.

Bunday yondashuv oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishning monitoring mexanizmi ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda o‘qitishning monitoring mexanizmining asosiy vazifasi talabalarning kasbiy kompetensiyasini va ularning tarbiya ishiga bo‘lgan tayyorgarligini yangilab borish hamda kengaytirishdan iborat.

O‘qitishning monitoring mexanizmida quyidagi xususiyatlar ajralib turadi:

- o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini muntazam o‘rganib va kuzatib borish;

- o‘rganishlar natijasida fanni o‘qitish bo‘yicha yangi yo‘nalishlarni belgilash;

- belgilangan yangi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv materiallarini tayyorlash;

- fanni o‘qitishda keng jamoatchilikni jalb etish.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda monitoring mexanizmidan foydalanish mazkur fanning amaliy jihatlarini kuchaytiradi. Eng asosiysi o‘qitishning monitoring mexanizmida keng jamoatchilik ishtirot etadi. Shu sababli hozirgi zamon Pedagogika fanida o‘qitishning monitoring mexanizmiga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda o‘qitishning monitoring mexanizmiga amal qilish yangi hodisa bo‘lib, mazkur mexanizmdan foydalanishning metodologik asoslarini ishlab chiqish taqozo etiladi. Shu jihatdan “Tarbiya” fanini o‘qitishning monitoring mexanizmidan foydalanish uchun “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani tajribasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Fanni o‘qitishning tayanch mexanizmlari. Olyi pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga o‘qitiladigan “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda tayanch mexanizmlarga tayanish muhim o‘rin tutadi.

O‘qitishning amaliy mexanizmlari auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarga asoslanadi. Shu ma’noda oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘qitishda ta’limning quyidagi tayanch mexanizmlariga tayanish kutilgan samarani beradi:

A) ushbu fanni o‘qitishda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar hisoblangan ekskursiyalar, uchrashuvlar, to‘garaklar, klublar va tanlovlardan imkoniyatlarga tayanish;

B) mazkur fanni o‘qitishda chuqurlashtiruvchi mashg‘ulotlar hisoblanuvchi maxsus kurslar, to‘garaklar va hamkorlik darslarining imkoniyatlardan oqilona foydalanish;

V) bu fanni o‘qitishda, misol uchun, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida tashkil etilgan “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri” kabi amaliy tuzilmalarning hamkorligiga tayanish;

G) ushbu fanni o‘qitishda ta’lim oluvchilarining ijodkorligi, ijodiy ishlamalari va loyihalari taqdimotlariga tayanish.

O‘qitishning bunday tayanch mexanizmlari vositasida “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fani kutilgan darajada amalga oshiriladi. Mazkur amaliy mexanizmlar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida quyidagi amaliy ko‘nikmalarning shakllantirilishiga erishiladi:

- nazariy bilimdonlik;
- tarbiyaviy ko‘nikmalik;
- kasbiy faollik;
- pedagogik ijodkorlik.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda nazariy bilimdonlik mazkur fanning metodologik, didaktik va amaliy asoslarini chuqur o‘zlashtirishga, tarbiyaviy ko‘nikmalik ushbu fan bo‘yicha o‘quvchilar tarbiyasini izchil amalga oshirishga, kasbiy faollik o‘qituvchining samarali faoliyatiga hamda pedagogik ijodkorlik esa fanni o‘qitishda turli metodlar va texnologiyalarga asoslanishni nazarda tutadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini “Tarbiya” fanini o‘qitishning tayanch mexanizmlarini o‘zlashtirishda mazkur ko‘nikmalarni va kompetensiyalarni o‘rganish taqoza etiladi. Bu borada ayniqsa, keyingi paytlarda pedagogik ijodkorlik masalasi ilk rejaga chiqmoqda. Haqiqatan ham, “Tarbiya” fani kabi yangi o‘quv predmetlarini o‘qitishda pedagogik ijodkorlik tayanch mexanizmlardan biridir.

Pedagogik ijodkorlik ushbu fanni noan'anaviy dars shakllarida, axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o'qitishga va muntazam ravishda individual o'qitish uslubini takomillashtirib borishga asoslanadi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar oliv pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik ijodkorlik bo'yicha ko'nigmaga ega bo'lishi va uning asoslari bilan qurollanishi taqoza etiladi. Bularning barchasi "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'quv predmeti asosida amalga oshiriladi.

Bunday amaliy mexanizmlardan foydalanish "Tarbiya" fanini butunlay yangi asoslarda o'qitish tizimining tarkib topishiga olib keladi.

E'tibor berilsa, oliv pedagogik ta'lim jarayonida "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'qitishning klaster, monitoring va tayanch mexanizmlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini amaliy jihatdan tarkib toptirish asosiy vositalardan hisoblanadi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. "Tarbiya" fanini o'qitishning klaster mexanizmi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Fanni o'qitishning monitoring mexanizmlarini nimalar tashkil etadi?
3. Fanni o'qitishning amaliy mexanizmlarining mazmuni nimalardan iborat?
4. Quyidagi kitobni o'qib chiqing: Muxamedov G., Xudjamkulov U. Pedagogik ta'limning innovatsion klasteri. –Chirchiq, 2020.



13-MAVZU: “TARBIYA” FANI O‘QITISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Reja:

1. “Tarbiya” fanini o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda tadqiqotlar xulosalaridan foydalanish
2. Fanni o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda ijtimoiy so‘rovnomalardan foydalanish
3. Fanni o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda individual amaliy tajribalardan foydalanish

Tayanch iboralar:

Tarbiya, fan, o‘qitish, amaliyat, takomillashtirish, tadqiqot, xulosa, foydalanish, so‘rovnama, bilim, ko‘nikma, malaka.

“Tarbiya” fanini o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda tadqiqotlar xulosalaridan foydalanish. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanini o‘qitishda butunlay yangi amaliy asoslarga tayanish lozim bo‘ladi. Chunki bu fan quyidagi jihatlari bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi:

- 1) fan butunlay yangi bo‘lib, uni o‘qitishda yangicha asoslarga tayanish lozim;
- 2) fanning nazariy, metodologik va amaliy asoslari innovatsion g‘oyalarga, yondashuvlarga hamda texnologiyalarga tayanadi;
- 3) fanning amaliy samaradorligi ta’lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini amaliyoti bilan belgilanadi.

Shu sababli “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanini oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda *pedagogik tadqiqotlar xulosalaridan* muntazam foydalanib borish muhim o‘rin tutadi. Bunday tadqiqotlarning xulosalarida quyidagilar bo‘yicha muhim yondashuvlar va tavsiyalar taqdim etilgan hisoblanadi:

- mavzularning takomillashtirib borilishi va o‘quv materiallarini yangilash asoslari yaratilganligi;
- mazkur o‘quv fanning metodlari, texnologiyalari va ularning xususiyatlari bo‘yicha tavsiyalar berilganligi;

- bu fanning amaliy samaradorligiga erishish bo‘yicha metodik asoslar taqdim etilganligi.

Oliy pedagogik ta’olim jarayonida “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanini o‘qitishning amaliy jihatdan takomillashtirib borishda ilmiy tadqiqotlarda taqdim etiladigan xulosalarni muntazam o‘rganib borish va ularni amaliyatga joriy qilish taqoza etiladi.

Fanni o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda ijtimoiy so‘rovnomalardan foydalanish. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanini o‘qitishning amaliyotini takomillashtirib borish mexanizmlaridan biri *ijtimoiy so‘rovnomalar* o‘tkazish va ularning natijalari asosida fanni o‘qitish asoslarini takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagilarga asoslanish tavsiya etiladi:

1) fan mavzularini va ularning o‘quv materiallarini takomillashtiruvchi davriy ijtimoiy so‘rovnomalari o‘tkazib borish;

2) fanni o‘qitishda ta’lim oluvchilar va undan manfaatdorlarning fikrini bilib borish bo‘yicha choraklik ijtimoiy so‘rovnomalari o‘tkazib borish;

3) fanning metodlari, texnologiyalari va uning innovatsion asoslarini takomillashtirib borish bo‘yicha ijtimoiy so‘rovnomalari o‘tkazib borish;

4) fanni o‘qitishni takomillashtirib borish bo‘yicha o‘quv va ilmiy muassasalarining takliflarini bilib borishga doir yilliy ijtimoiy so‘rovnomalari o‘tkazib borish.

E’tibor berilsa, ijtimoiy so‘rovnoma va ularning natijasida olinadigan tahlillar oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanini o‘qitishni amaliy takomillashtirib borishda o‘ziga xos laboratoriya manbaidir. Bunday yondashuv asosida fanni o‘qitishning yangicha asoslari kashf etib boriladi va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy ko‘nikmalarini amaliy shakkantirib borish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Shu sababli ijtimoiy so‘rovnoma mexanizmlaridan oqilona foydalanish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini va amaliy faoliyatdagi o‘qituvchilarga tavsiya etiladi.

Fanni o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda individual amaliy tajribalardan foydalanish. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'quv fanini o'qitish amaliyotini takomillashtirishda *individual amaliy tajribalaridan* foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Individual amaliy tajribalar – bu "Tarbiya" fanini o'qitishni amalga oshiruvchi professor va o'qituvchilarining o'ziga xos yonda-shuvlari, metodlari va texnologiyalari majmuidir. Shu sababli bu tajriba majmui fanni o'qitishda o'ziga xos tayanchlardan biri hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'quv fanini o'qitishning individual amaliy tajribalaridan foydalanish uchun quyidagi larda amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) oliy, o'rta maxsus va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" o'quv fani bo'yicha faoliyat olib borayotgan professor va o'qituvchilarining faoliyatini monitoring qilib borish;
- 2) mazkur fanni o'qitishda muvaffaqiyatga erishayotgan professor va o'qituvchilarining yutuqlarini tahlil qilib borish;
- 3) mazkur fan bo'yicha ta'lim oluvchilar, ta'lim beruvchilar, o'quv va ilmiy muassasalarining tashabbuslarini o'rganib borish;
- 4) o'rganilayotgan individual amaliy tajribalarni fanni o'qitish jarayoniga tadbiq etish mexanizmlarini yaratib borish.

Bunday yondashuv oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'quv fanini o'qitish amaliyotini takomillashtirishning muhim mexanizmi hisoblanadi.

Shunday qilib oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'quv fanini o'qitishning amaliyotini takomillashtirib borishda ilmiy- tadqiqot xulosalari, ijtimoiy so'rovnoma va ilg'or individual amaliy tajribalar muhim ahamiyatga ega. Bu tajribalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga muhim tayanchlar bo'lib xizmat qiladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. “Tarbiya” fanini o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda tadqiqotlar xulosalaridan foydalanish qanday bo‘ladi?
2. Fanni o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda ijtimoiy so‘rovnomalardan foydalanishning asoslari nimalardan iborat?
3. Fanni o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda individual amaliy tajribalardan foydalanish tayanchlarini nimalar tashkil etadi?
4. “Tarbiya” fanini o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda tadqiqot xulosalari, ijtimoiy so‘rovnomalari va individual amaliy tajribalardan foydalanish asoslarini o‘zlashtiring.

Mazkur uchinchi modulda tarbiya amaliyotining asosiy masalalari bilan tanishdingiz. Bu modulni o‘zlashtirish bilan 6 kreditga ega bo‘lasiz. Buning uchun har bir mavzu oxirida berilgan mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish va o‘zlashtirgan ko‘nikmalaringizni pedagogik hamda malakaviy amaliyotlar davrida amalda qo‘llab ko‘rish tavsiya etiladi.



AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-mavzu: “Tarbiya” fani va unga oid me’yoriy hujjatlar bilan ishslash

Tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlari ta’lim nazariyasidan farq qiladi. Bunda tarbiyaga oid nazariy yondashuvlar amaliyat bilan bog‘lanishi xarakterli xususiyatdir. Shu sababli ushbu mavzuni o‘zlashtirishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlarini o‘zlashtirish;
- “Tarbiya” fani asoslarini o‘rganish va bunday asoslarning eng muhim jihatlariga e’tibor berish;
- “Tarbiya” fanini o‘qitish zaruriyatini anglash.

O‘zbekiston ta’lim tizimida “Tarbiya” fani yangi o‘quv predmeti bo‘lganligi uchun mazkur fanning me’yoriy hujjatlarini o‘rganish va hujjatlardagi eng muhim o‘rnlarni o‘zlashtirish taqoza etiladi. Misol uchun, mazkur fan bo‘yicha asosiy hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyundagi 422-sonli “Umumiy o‘rtalim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroridir. Mazkur qarorni o‘rganish jarayonida quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- 2020 yil iyul oyidan boshlab yangi o‘quv yiliga tayyorlanish jarayonida umumiy o‘rtalim maktablaridagi “Boshlang‘ich ta’lim”, “Milliy g‘oya va huquq”, “Tarix” va “Dinshunoslik” mutaxassisligiga ega fan o‘qituvchilari “Tarbiya” fanidan dars berishga tayyorlanib kelmoqda;
- mazkur tayyorgarlik ishlari “Tarbiya” fani bo‘yicha oliv ma’lumotli o‘qituvchilar tayyorlangunga qadar davom etadi;
- “Tarbiya” fani bo‘yicha darsliklar, o‘quv materiallari va metodik tavsiyalar majmularini nashr etish va tarqatish davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi;
- Ushbu Qaror bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rtalim muassasalarini o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiysi”ni o‘zlashtirish.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mazkur Qaror va Konsepsiyada belgilangan vazifalarni, talablarni va qoidalarni o‘zlashtirishi zarur.

Mazkur mavzu bo'yicha me'yoriy hujjatlarni o'rganing va konspekt qiling.

1-topshiriq. Tarbiya va uning mohiyati bo'yicha blits-so'rov:

1. Tarbiya-ijtimoiy hodisa sifatida nima?
2. Tarbiya-pedagogik hodisa sifatida nima?
3. Tor va keng ma'nolardagi tarbiya nima?
4. O'z-o'zini tarbiyalash nima?
5. Tarbiya nazariyasi nima?
6. Tarbiya jarayoni nima?
7. Tarbiyadan ko'zlangan maqsad nima?
8. Tarbiyaning umumiy vazifalari nimalardan iborat?
9. Tarbiyaning pedagogik jarayondagi vazifalari nimalardan iborat?
10. Uzlusiz milliy-ma'naviy tarbiya nima?

2-mavzu: "Tarbiya" fani manbalari tahlili

"Tarbiya" fani insoniyat tarixida, jumladan, o'zbek xalqi tarixida juda qadimdan tajribaga ega bo'lib kelmoqda. Shu sababli pedagogik tadqiqotlarda avval tarbiya jarayoni, keyin ta'lim kelib chiqganligi ta'kidlanadi. Shu jihatdan tarbiyaning manbalarini chuqur o'rganish va bunday manbalarning eng muhim jihatlarini o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy komponenti tarkibiga kiradi.

"Tarbiya" fani manbalarini o'rganishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- o'zbek pedagogikasi tarixida tarbiya jarayoniga oid yonda-shuvlar;

- jahon xalqlari pedagogikasida tarbiya masalalarini ifodalanishini o'zlashtirish;

- "Tarbiya" fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini o'rganish.

Bunday yondashuv "Tarbiya" fani manbalarini tahlil qilish vositasida o'zlashtirish imkonini beradi. Misol uchun, o'zbek pedagogikasi tarixida tarbiya jarayoniga oid muhim belgilar, o'gitlar va nasihatlar belgilangan. Jahon xalqlari pedagogikasida tarbiyaning ijtimoiy masalalariga alohida e'tibor berilgan. Shu sababli bu manbalarni o'rganishda uyg'unlik tamoyiliga asoslanish lozim.

"Tarbiya" fanining ilmiy-tadqiqot metodlari ko'p. Bu metodlarning asosiyalarini quyidagilar tashkil etadi va ularni o'zlashtirish zaruriyat hisoblanadi:

- pedagogik manbalarni o‘rganish metodi;
- pedagogik tadqiqotlarni o‘zlashtirish metodi;
- kuzatuv metodi;
- sintez va analiz metodi;
- qiyosiy-tipologik taxlil metodi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mazkur metodlarni o‘zlashtirishi kerak. Chunki hozirgi zamonda boshlang‘ich ta’lim metodikasi ilmiy tafakkuriga ega boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash talabini qo‘ymoqda.

“Tarbiya” fani manbalari tahlilini o‘rganishda pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning ta’kidlangan metodlarini o‘zlashtiring.

Topshiriq: “Tarbiya” fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini 1-jadvalning tegishli ustunlarida mos ravishda qayd eting.

1-jadval

| Tushunchalar | “Tarbiya” fanining asosiy kategoriyalari (tushunchasi) | “Tarbiya” fanining ilmiy-tadqiqot metodlari |
|--|--|---|
| Barkamol shaxs (komil inson) | | |
| Shaxs kamoloti | | |
| Tahlil qilish | | |
| Sintez qilish | | |
| Ma’rifat | | |
| Ta’lim | | |
| O‘qitish | | |
| Taqqoslashi | | |
| Tarbiyaga oid pedagogik merosni o‘rganish; | | |
| Tarbiyaga oid jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarini o‘zlashtirish; | | |
| Tarbiyaga oid me’yoriy hujjatlarni bilish; | | |
| Tarbiyachining o‘z individual tarbiyaviy tajribasining bo‘lishi. | | |

3-mavzu: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi metodologiyasi

Shaxs tarbiyasi va hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Shu sababli mazkur mavzuni o‘zlashtirishda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- milliy qadriyatlar deganda xalqimizning qadimdan kelayotgan va xalq tajribasidan o‘tgan tarbiyaga oid odatlar, udumlar, odoblar hamda yondashuvlar tushuniladi;
- xalqimizning milliy qadriyatlarida oila tizimi, jamoaparvarlik va o‘zgalarga yordam tamoyillari muhim o‘rin tutadi;
- umuminsoniy qadriyatlar deganda insoniyat hayotiga xos bo‘lgan ideal maqsad-muddaolar, tinchlikparvarlik va Yer yuzida birodarlikni o‘rnatish tamoyillari tushuniladi;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda ularning ongi va xarakterida umuminsoniy qadriyatlarning eng muhim tushunchalari singdiriladi.

O‘zbekiston boshlang‘ich ta’lim tizimida bugungi kunda milliy qadriyatlar quyidagi yangi milliy g‘oyalarga asoslanadi:

- insonparvarlik;
- ezgulik;
- bonyodkorlik.

Eslatib o‘tish joizki, boshlang‘ich ta’limda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongi, dunyoqarashi, axloqi hamda xarakteri shakllanish jarayonida bo‘lganligi uchun ular milliy va umuminsoniy qadriyatlar olamiga olib kiriladi.

Boshlang‘ich ta’limda milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini amalga oshirishda milliy tarbiya konsepsiyasiga asoslaniladi. Milliy tarbiya konsepsiysi 7-11 yoshli shaxslarni ma’naviy shakllantirish, ularni ijtimoiylashtirish va jismoniy rivojlantirishga asoslaniladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ta’kidlab o‘tilgan ta’riflarini o‘zlashtiring va yozib oling.

Topshiriq: Quyidagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar aks etgan dars ishlanmani o‘rganib chiqing.

Sana: _____

Mavzu: Bobolarimizning bebahो merosi

Maqsad: **Ta'limiy:** O`quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish. Yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo`lish, hamma millat vakillariga yaxshi munosabatda bo`lish bilimini shakllantirish

TK2: axborot manbalari (televizor, telefon)dan to`g`ri foydalana olish

FK1 suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o`z fikrini to`g`ri bayon qilish ;

Tarbiyaviy: Odob-inson ko`rki va ma'naviy boyligi ekanligini va mutafakkir ma`rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o`g`itlarini, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o`zbekona urf-odat va an'analarining millliy xususiyatlarni farqlash va amalgamoshirish usullarini o`rgatish .

TK4: Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko`rsatish;

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarning mavzuga oid bilim, ko`nikma , malakalarini rivojlantirish, matn bilan ishslash orqali fikrlash qobiliyatlarini, og`zaki nutqini o`stirish. **FK1:** O`zbekistonda yashayotgan millatlar va elatlar haqida ma'lumot bera olish

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars usuli: Suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishslash.

Dars jihizi: Darslik, taxta, bo`r, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Darsning borishi.

| T/R | Bo`limlar | Vaqti |
|-------------|---|-----------|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O`tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O`quvchilarni rag`batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o`quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O`tilgan mavzuni mustahkamlash. O`tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o`tkaziladi. O`tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O`quvchilar topshiriq-

larni bajarib, o`tilgan mazuni qismlarga bo`lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o`qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

1. «Yurt tinchligi - el boyligi» iborasini qanday tushunasiz?
 2. Vatan ravnaqi uchun siz qanday hissa qo'sha olasiz?
 3. Atrofingizdagi insonlardan kimlarni qahramon sifatida ko'rsata olasiz?
 4. Yurtimizda yashagan mard va jasur bobolardan kimlarni bilasiz?
- Ularning nomlarini va amalga oshirgan ishlarini gapirib bering.

III. Yangi mavzu bayoni.

KOINOTNI ZABT ETGAN BOBOM

Bundan 1200 yillar avval yashagan bobomiz Ahmad al-Farg'oniy yerdan turib yulduzlarni o'rgangan. U bolaligidan kitoblarni sevib o'qir, bilmaganlarini ustozidan so'rab o'rganar edi.

Bag'dod shahrida ta'lrim olgan Ahmad al-Farg'oniy ko'p vaqtini kutubxonada o'tkazgan. U yunon va hind olimlarining kitoblarini o'qigan, ularni arab tiliga tarjima qilgan va o'quv-chilar uchun sodda tilda sharh-i lagan. Ahmad al-Farg'oniyning



«Astronomiya asoslari haqida kitob» asari uzoq vaqt davomida jahondagi ko'plab universitetlarda astronomiyadan asosiy darslik sifatida o'tilgan. O'zbekistonda Ahmad al-Farg'oniy nomidagi bog'lар, ko'chalar mavjud.

861-yilda Misrda Al-Farg'oniy bobomiz Nil daryosi suvi sathini 0'lchaydigan inshoot barpo etgan.


Undagi matematik hisob-kitoblar bo'yicha ishlaydigan suv tarozisi qaysi dehqon qancha yer solig'i to'lashini aniq belgilab bergen Uni «adolat tarozisi» ham deyishgan. Tarixiy suv tarozisi poyida Ahmad al-Farg'oniyning ulug'vor va ko'rkmak hay kali qad rostlagan

1. Ahmad al-Farg'oniydek buyuk olim bo'lish uchun uning qanday xislatlari sizda ham bo'lismeni xohlar edingiz?
2. Ahmad al-Farg'oniy yozgan kitoblar dunyo rivojiga qanday hissa qo'shgan?
3. Misrliklar Ahmad al-Farg'oniyini nima sababdan hurmat qilishadi?

Abu Abdulloh Muhammad ismli bola uzoq yurtlarga ilm o'rganish uchun chiqadigan bo'libdi. Uning bu ishini onasi qo'llab-quwatlab, bilim yo'lida har qanday to'siqlarni yengib O'tishi uchun sabr va matonat kerakligini aytib, oq fotiha beribdi. Bola uzoq O'lkalarga borib, u yerlardagi mavjud bilimlarni o'rganibdi va odam-larni o'z iqtidori bilan lol qoldiribди.

Odamlar bolakaydan ismini so'rashsa, «Men Muhammad, Buxorodanman», deb javob berar ekan. Keyinchalik uni Muhammad Buxoriy deb chaqiradigan bo'lishdi. Buxoriy Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ning hayot va faoliyatları, qilgan ishlari nasihatlarini or'gandi. U to'plagan ma'lumotlarini qog'ozga tushirdi. Eshitganlariga o'zi ham amal qildi.

Muhammad al-Buxoriyning bilimi tufayli uning tug'ilgan yurti Buxoroni bare ha tan oldi



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O'tilgan mavzu mustahkamlanadi

O'ylab ko'ring-chi, «Kimning farzandisiz? Tarbiya bergen ota-onangizga rahmat», «Qaysi maktabda o'qiyisiz, sizga qoyilmiz, ustozingiz yaxshi ekan» degan e'tirofni eshitgan vaqtingizda sizni qanday tuyg'u qamrab oladi?

Hikoya yuzasidan qilgan xulosangizni berilgan hikmat bilan bog'lab ko'ring.

Matn asosida tushirib qoldirilgan so'zlarni toping va o'rniga **qo'ying:** «...dan boshqa ... yo 'q va bo 'Imagay

Kattalar bilan quyidagi maqollarni muhokama qiling. Kitob o'qish

inson hayotiga mazmun olib kiradi. Muvaffaqiyat kitob O‘qigan insonga nasib qiladi.

Bilim insonlar hayotini osonlashtiradi.

1. «Men Ahmad al-Farg‘oniy kabi buyuk olim bo‘lishim uchun...» degan fikrni davom ettirib, 12-14 ta gap- dan iborat hikoya tuzing.

V. O`quvchilarни rag`batlantirish. Darsni yakunlash.

O`quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi. Rag`bat kartochkalari orqali baholanadi. Guruhlar ham umumiy rag`batlantirilib boriladi.

VI. Uyga vazifa Uyga mazifa bugungi mavzuni o`qib kelish, qayta hikoyalashga tayyorlanish, xulasa chiqarish.

4-mavzu: Tarbiyada milliy g‘oya asoslari bo‘yicha trening

Mazkur mavzuni o‘zlashtirishda trening mashg‘ulot shakliga asoslaniladi. Trening-bu talabalarning guruhga bo‘linib mavzu bo‘yicha bahs-munozara o‘tkazishidir. Shu sababli ushbu mavzuni o‘zlashtirish uchun quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

- talabalar 3 guruhg‘a bo‘linadi;
- 1 guruh talabalariga milliy g‘oyaning Insonparvarlik tamoyili sifatlarini yozish topshirig‘i beriladi;
- 2 guruh talabalariga milliy g‘oyaning Ezgulik tamoyili asoslarini yozish topshirig‘i beriladi;
- 3 guruh talabalariga milliy g‘oyaning Bunyodkorlik tamoyili omillarini yozish topshirig‘i beriladi.

Topshiriqni bajarish uchun 15 minut vaqt beriladi. Shundan so‘ng har bir guruh bajarilgan topshiriq bo‘yicha taqdimot o‘tkazadi. Taqdimot jarayonida bajarilgan topshiriqdar bo‘yicha savol-javoblar o‘tkaziladi.

Trening jarayoni o`qituvchi tomonidan kuzatib boriladi va baholaydi:

- baholashda topshiriqning sifatli bajarilganligiga;
- mustaqil fikrlanganligiga;
- ijodiy yondashilganligiga;
- guruhning birgalikda ishlaganligiga e’tibor qaratiladi.

Trening mashg‘uloti guruhning ijodiy yondashuviga va mavzu bo‘yicha berilgan topshiriqni mustaqil bajarishiga asoslanadi. Shu

sababli mazkur mavzuni o‘zlashtirishda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- O‘zbekistonning yangi milliy g‘oyasi tamoyillarini o‘zlashtirish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy g‘oya asosida tarbiyalashni bilish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy g‘oya asosida tarbiyalanganlik darajasini baholashni bilish.

Trening jarayonida guruhlardagi talabalarning faolligi va mavzuni o‘zlashtirganligiga qarab kredit beriladi.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha 3 guruhga bo‘linib, trening o‘tkazing. Bunda ta’limning onlayn shaklidan ham foydalinish mumkin.

Topshiriq: Quyidagi dars ishlanmani o‘rganib chiqing. O‘zing`iz ham milliy g‘oya aks etgan mavzu yuzasidan dars ishlanma yozing.

Mavzu Olamni mahliyo aylagan diyor

Maqsad: Ta’limiy: O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi, Mustaqillik – ulug‘ ne’mat. Mustaqillik yillarda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyat va sharoitlar haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: O‘quvchilarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning og`zaki nutqini rivojlantirish,

O‘quv jarayoniga oid kompetensiya: **TK-1;** jamoat joylarida o‘zini tutish odobiga rioya qilish; xalq maqollari, muqaddas kitoblardagi ibratlari so‘zlarni aniq va tushunarli bayon qila olish; **TK-2;** axborot manbalari (televizor, telefon)dan foydalana olish. **TK-3;** har qanday vaziyatda o‘zini tuta bilish va o‘zini nazorat qila bilish. **TK-4;** o‘zining o‘quvchilik burch va huquqlarini bilish va unga rioya qilish, **TK-5;** Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli bo‘lish elementlari shakllantirish; **FK-1:** odobli bo‘lishga shaxsiy namuna ko‘rsatadi; O‘zbekiston Vatani ekanligidan, O‘zbekistonda yashayotganligidan faxrlanadi; milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, tinch va osoyishta hayot, do’stlik va totuvlikni qadrlash tushunchalarini bilish elementlari shakllanadi. **FK-2:** haqorat va turli yomon so‘zlardan, yomon odatlardan saqlana oladi.

Dars metodi: Tushuntirish , suhbat, ko‘rsatmalilik, amaliy.

Dars jahozi: Mavzuga mos rasm va plakatlar.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil qilish: 1. Salomlashish. 2. Davomatni aniqlash.
3. O'quvchilarni darsga tayyorlash.

II. Uy vazifani tekshirish Ta'til haqida suhbat.

O'quvchilar ta'til vaqtida nimalar bilan band bo'lganliklari haqida gapirib beradilar.Qayerlarga borganliklari haqida ham o'z o'rtoqlariga aytib berishadi.

III. Yangi mavzu bayoni

Darslikda berilgan rasmlar ustida suhbatlashib ,yangi mavzu haqida gaplashamiz.

1. Siz ertalab quyoshning chiqishini kuzatganmi- siz? Kuzatgan bolsangiz manzarani tasvirlab be ring.

2. "Semurg¹ yoki Parizod va Bunyod" ertagi- ni eshitganmisiz?
Semurg' qanday qush va u nimaning ramzi sanaladi?

3. Mamlakatimiz dalalarida qanday o'simliklar yetishtiriladi?

4. 1-, 2- 3- 4-, 6-rasmlar bilan 5-rasm o'rtasi- da qanday bogliqlik bor?

5. 7-, 8-rasmlar asosida "Olamni mahliyo aylagan diyor"
jumlasining mazmuniga mos matn tu- zing.

6. 8-rasmda tasvirlangan insonlar mamlakat ravnaqiga qanday hissa qo'shmaqdalar?

IV. Darsni mustahkamlash:

O'quvchilarga quyidagi savollarni berib,ularni javoblari baholanadi.


1. Siz ertalab quyoshning chiqishini kuzatganmi- siz? Kuzatgan bolsangiz manzarani tasvirlab bering.

2. "Semurg¹ yoki Parizod va Bunyod" ertagi- ni eshitganmisiz?
Semurg' qanday qush va u nimaning ramzi sanaladi?

3. Mamlakatimiz dalalarida qanday o'simliklar yetishtiriladi?

V.Umumlashtirish va xulosalash.

VI.. Uyga vazifa .O'qib,savollarga javob yozib kelish va mavzuga mos rasm chizish.



5-mavzu: Tarbiyaning asosiy tamoyillari va metodlari

Boshlang‘ich ta’limda tarbiya jarayonini amalga oshirish o‘ziga xos asosiy tamoyillar va metodlarga asoslanadi. Mazkur mavzuni o‘zlashtirishda quyidagilarga e’tibor berish tavsiya etiladi:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyasida pedagogik tamoyillar masalasini aniqlab olish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyasida psixologik tamoyillarni belgilab olish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyasida ijtimoiy tamoyillarni belgilash.

Bunday yondashuv e’tibor berilsa, uchta tamoyilga asoslanishi ma’lum bo‘ladi. Bular pedagogik tamoyillar (bolaparvarlik, jismoniy yetuklik, aqliy shakllanganlik), psixologik tamoyillar (ruhiy yetuklik, tasavvurga egalik, xotiraning rivojlanganligi) va ijtimoiy tamoyillar (bolaning ijtimoilyashuvi, mакtab jamoasiga moslashuvi, faollik). Mazkur tamoyillar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash lozim bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaning quyidagi metodlariga asoslanish zaruriyat hisoblanadi:

- tushuntirish;
- o‘rgatish;
- ko‘niktirish;
- odatlantirish.

Bunda tushuntirish metodi boshlang‘ich sinf o‘quvchisini ongini shakllantirishga asoslanadi. O‘rgatish metodi mazkur toifadagi o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishga tayanadi. Ko‘niktirish metodi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiylikni tarkib toptirishni nazarda tutadi. Odatlantirish metodi esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilim olishga va axloqiy faol bo‘lishga ko‘niktirishga asoslanadi. Bu metodlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dastlabki bosqichda pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan tarbiyalanadi.

Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaning asosiy tamoyillari va metodlarini o‘zlashtirishi taqoza etiladi. Buning uchun o‘zlashtirilgan tarbiya tamoyillari va metodlari pedagogik amaliyot davrida sinovdan o‘tkazilishi kerak.

Mavzu bo'yicha tarbiyaning asosiy tamoyillari va metodlarini o'zlashtiring.

Topshiriq: Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida pedagogik va psixofiziologik tamoyillarining o'zaro bog'liqligini jadvalda qayd eting:

| Nº | Tarbiya qonuniyatlari | Tarbiyaning qaysi tamoyillari asosida namoyon bo'ladi |
|----|--|---|
| 1 | o'quvchilarning jismoniy, aqliy va ruhiy uyg'un rivojlanishini amalga oshirish | |
| 2 | <i>bolani ko'niktirish:</i> bolani tarbiya olish, bilimni egallash va o'zgalar bilan ijtimoiy munosabatga kirishishga yo'naltirish | |
| 3 | <i>bolani yo'naltirish:</i> bolani fazilatlar, hislatlar va bilish jarayoni sari yo'naltirish; | |
| 4 | o'quvchilarning tug'ma layoqatlarini rivojlantirish | |
| 5 | o'quvchilarning bilim olish va tarbiyalanish masalalari bo'yicha estetik didini shakllantirish | |
| 6 | <i>bolaning imkoniyatlarini hisobga olish:</i> bunda bolaning jismoniy, aqliy, ruhiy va sensor xususiyatlarini bilish | |
| 7 | o'quvchilarning jinsini hisobga olish (o'g'il va qiz bolalarga xos bo'lgan fazilatlarni shakllantirish); | |
| 8 | <i>bola shaxsini hurmat qilish:</i> bolaga xos xarakterni, qiliqlarni va intilishlarni tabiiy qabul qilish; | |

6-mavzu: Boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi

Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish o'ziga xos metodlarga asoslanishi bilan ajralib turadi. Shu sababli bu o'rinda metodika-atamasining ma'no-mazmuni va xususiyatlariga e'tibor

berish lozim. Metodika deganda tarbiyalashning qulay, oson va maqbul usullarga tayanish nazarda tutiladi.

Ushbu mavzuni o‘zlashtirishda quyidagilarga e’tibor berish samarali hisoblanadi:

- didaktikaning asosiy tamoyillarini o‘rganish;
- o‘ziga xos tarbiya metodlarini o‘zlashtirish;
- ushbu fanni o‘qitishning texnologiyalarini bilish.

Bunda didaktikaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- o‘qitish;
- o‘rgatish;
- tarbiyalash;
- shakllantirish.

Bu tamoyillar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim olish va tarbiyalanish ko‘nikmasini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodlari o‘ziga xos hisoblanadi. Bu metodlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- namuna ko‘rsatish;
- ibrat bo‘lish;
- yo‘naltirish;
- tashabbuskorlikka o‘rgatish.

Mazkur metodlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” fanini o‘qitish texnologiyalari ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Bunda texnologiyalarni tanlashda o‘quvchilarining imkoniyatlarini hisobga olish zaruriyatdir. Shu sababli quyidagi texnologiyalar tavsiya etiladi:

- pedagogik texnologiyalar (noan’anaviy va an’anaviy shakllarda uyg‘un o‘qita olish usullariga tayanish);
- axborot-kommunikatsion texnologiyalari (kompyuterli texnologiya, multimediyali texnologiya, animatsion vositalar).

Ushbu texnologiyalar asosida boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish kutilgan samarani beradi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliv pedagogik ta’lim jarayonida mazkur fanni o‘qitishning tamoyillari, metodlari va texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirishi lozim.

Mavzuni o‘zlashtirishda boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning tamoyillari, metodlari va eng asosiy texnologiyalarini o‘zlashtiring, ularni konsept qiling.

I-Topshiriq: Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

- Amaliy mashg‘ulot matnnini o‘qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ta’limot

- - men bilgan ta’limotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo‘sishimcha ta’limot.

- Olingan natijalarini jadval shaklida rasmiylashtiring?

1-jadval

| Mavzu savollari | V | - | + | ? |
|---|---|---|---|---|
| 1. Tarbiyaga tushunchasiga ta’rif bering? | | | | |
| 2. Didaktikaning asosiy tamoyillari | | | | |
| 3.“Tarbiya” fanini o‘qitish texnologiyalari | | | | |
| 4. “Tarbiya” fanini o‘qitish metodlari. | | | | |

2-Topshiriq: Bilim manbalariga ko‘ra “Tarbiya” fanini o‘qitish metodlarining tasnifi va tavsifini 2-jadvalda keltiring.

2-jadval

| Metodlar guruhining nomi: | Metodlar nomi | Tavsifi |
|---------------------------|---------------|---------|
| | | |

7-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitishning noan’anaviy shakllari

Hozirgi zamon O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limida o‘qitishning bir necha shakllari amal qilmoqda. Shu jihatdan ushbu mavzuni o‘zlashtirishda o‘qitishning noan’anaviy shakli asoslari, vositalari va usullarini o‘zlashtirishga e’tibor qaratish tavsiya etiladi.

O‘qitishning noan’anaviy shakllari deganda darsdan tashqari mashg‘ulolar, shuningdek, masofadan turib amalga oshiriladigan

virtual mashg‘ulotlar tushuniladi. Bunda noan’anaviylik tushunchasi mavzularni tushuntirishda, ularni o‘zlashtirishda va o‘quvchilar tomonidan to‘liq o‘rganilishida qat’iy qoidalarga asoslanmagan mashg‘ulot ma’nosina anglatadi.

“Tarbiya” fanini o‘qitishning noana’anaviy shakllarini o‘zlashtirishda quyidagilarga e’tibor berish kutilgan samarani beradi:

- o‘qitishning noana’anaviy shaklida ko‘proq o‘quvchilar faolligiga tayaniladi;

- mashg‘ulotlar erkin va ixtiyoriy yondashuvlar asosida tashkil etiladi;

- mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning faolligiga va tashabbuskorligiga alohida e’tibor qaratiladi;

- ushbu fanni o‘qitishning noana’aviy shakli o‘qituvchi tomonidan kashf etiladi va amalga oshiriladi.

O‘qitishning noana’aviy shakli quyidagilarni o‘zlashtirishga e’tibor berish bilan ahamiyatga ega:

- tajribali o‘qituvchilarning individual o‘qitish uslublarini o‘rganib borish;

- darsdan tashqari mashg‘ulotlarni qiziqarli tashkil etish va amalga oshirish;

- o‘qituvchining o‘z tajribasiga tayanishi;

- o‘quv-texnik jihozlar va vositalardan oqilona foydalanish.

Boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” fanini o‘qitishning noana’aviy shaklli murakkab sharoitlarda qo‘l keladi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitishning noan’anaviy shaklli asoslari, usullari va vositalarini chuqr o‘zlashtirishi kerak.


O‘qitishning noan’anaviy shakli asoslarini konspekt qiling va o‘zlashtiring.

I-Topshiriq: O‘qitishning noan’anaviy shaklli afzalliklari va kamchiliklарини 1-jadvalda keltiring:

1-jadval

| Afzalliklari: | Kamchiliklari: |
|---------------|----------------|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

2-Topshiriq: “Tarbiya” fanini o‘qitishda xorij tajribalarini milliy o‘qitish tizimi bilan toifalang.



8-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitishning masofaviy ta’lim shakli metodikasi

O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limi jarayonida o‘qitishning yangi shakli metodikasini rivojlantirib borish jarayoni kechmoqda. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning masofaviy ta’lim shakli metodikasini o‘zlashtirishda quyidagilarga e’tibor berish tavsiya etiladi:

- masofaviy ta’lim deganda kompyuter kabi texnik vositalar asosida virtual tarzda amalga oshiriladigan o‘qitish jarayoni nazarda tutiladi;

- masofaviy ta’limda har bir mavzuning o‘quv materiallari bir necha variantda o‘qituvchi tomonidan maxsus tayyorlanadi va kompyuter dasturiga kiritiladi;

- masofaviy ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchilar teng faol ishtiroy etadi;

- masofaviy ta’limda mavzu materiallarining qiziqarli, qisqa va aniq bo‘lishi shart;

- o‘qituvchi tomonidan o‘qitish jarayoni nazorat qilib boriladi va boshqariladi.

E’tibor berilsa, o‘qitishning masofaviy ta’lim shakli metodikasi qiziqarli bilan ahamiyatga ega. Chunki o‘qituvchi tomonidan mavzu materiallarining yangi ma’lumotlar bilan boyitib borish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari, turli axborot vositalarining

imkoniyatlaridan foydalangan holda kun davomida o‘qitishni amalga oshirish mumkin. Bunda o‘quvchilarning faolligi va qiziquvchanligi oshadi.

Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning masofaviy ta’lim shaklidan foydalangan holda o‘qitish tavsisiya etiladi.

Oliy pedagogik ta’lim jaaryonida o‘qitishning masofaviy ta’lim shakli metodikasi asoslarini chuqr o‘zlashtiring.

Kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan an’anaviy va masofaviy dars turlarini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishslash asosida aralash darsni ko‘rsatib berish.

1-guruh darsning tashkiliy qismi va o‘tilgan mavzuni takrorlashni ko‘rsatib beradi;

2-guruh: yangi o‘quv materialini bayon qilish tartibini tushuntirib beradi;

3-guruh: o‘rganilganini mustahkamlash, o‘quvchilarni baholash va uy vazifasi berishni amalga oshiradi.

Mazkur topshiriqni bajarishda o‘qituvchi Zig-zag metodiga asoslanadi. Ya’ni har bir kichik guruh o‘ziga berilgan topshiriqni bajarib bo‘lgach, bir-birlari bilan o‘zaro almashinuv asosida o‘tkaziladigan dars haqida yaxlit tasavvur hosil qilinadi. Talabalarda o‘tkaziladigan dars haqida yaxlit tasavvur hosil bo‘lgach, kichik guruhlar navbatli bilan o‘zlariga berilgan vazifalarning taqdimotini o‘tkazishadi.

Topshiriqni bajarish oldidan guruh bilan kelishilgan holda, mutaxassislik bilan bog‘liq biror mavzuni tanlab olish maqsadga muvofiq.

2-topshiriq. Kichik guruhlarda nostandart darslardan lavha ko‘rsatish.

1-guruh uchun: konferensiya darsini o‘tkazilishini ko‘rsatib berish.

2-guruh uchun: masofaviy darsni tashkil etish.

3-guruh uchun: o‘yin tipidagi dasrni namoyish etish.

9-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitishning inklyuziv ta’lim shakli texnologiyasi

Boshlang‘ich ta’limdan asosiy maqsad o‘quvchilarning ruhiy, aqliy va jismoniy imkoniyatlaridan qat’iy nazar ularni mazkur ta’lim bosqichi bilan qamrab olishdan iborat. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga “Tarbiya” fanini o‘qitishning inklyuziv ta’lim shakli texnologiyasini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan chuqur o‘zlashtirishi zaruriyat hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim – bu o‘quvchilarning ruhiy, jismoniy va aqliy imkoniyatlarga mos ravishda o‘qitishni amalga oshirishdir. Bunda ta’lim jarayoni maxsus yondashuvlar va vositalar asosida amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning inklyuziv ta’lim shakli texnologiyasi asoslari quyidagilardan iborat:

- mashg‘ulotlarni o‘quvchilarning ruhiy, jismoniy va aqliy imkoniyatlariga mos ravishda texnik vositalardan foydalangan holda tashkil etish;

- ruhiy yoki jismoniy nuqsoni mavjud bo‘lgan o‘quvchilar uchun maxsus mashg‘ulotlar tashkil etish, unda vaqt omilini va o‘quvchilarning o‘zlashtirishini hisobga olish;

- o‘quv-tarbiya muassasalarida mazkur fanni inklyuziv ta’lim vositasida o‘qitish;

- aqliy nuqsoni mavjud bo‘lgan o‘quvchilar uchun sensor tarbiyani amalga oshirish;

- mazkur ta’lim shaklida mashg‘ulotlar tashkil etilganida mutaxassislar ishtirokidan unumli foydalanish.

Inklyuziv ta’lim shakli “Tarbiya” fanini o‘qitishda o‘quvchilarni to‘liq qamrab olish imkonini beradi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik turkumdag‘i fanlar vositasida inklyuziv ta’lim asoslarini chuqur o‘zlashtirishi shart.

Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning inklyuziv ta’lim shakli texnologiyasi asoslarini konspekt qiling.

Topshiriq: «Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi qonun va inklyuziya: qanday bo‘lishi kerak? Fikringizni izohlang.

"Pinbord" texnikasi

«Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi qonun va inklyuziya: qanday bo‘lishi kerak? amalga oshirilish ketma-ketligini "Pinbord" texnikasida aniqlang va mazmunini yoritib bering.

Pinbord texnikasi

(inglizchadan: ‘in — mahkamlash, board — doska) Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va sinflashni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.



O‘qituvchi taklif etilgan muammo bo‘yicha o‘z nuqtai nazarlarini bayon qilishni so‘raydi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag‘batlantiradi).



Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optima’l (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so‘zdan ko‘p bo‘limgan) sifatida alohida qog‘ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

10-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitishning elektron-modulli shakli metodologiyasi

Elektron-modulli o‘qitish shakli kompyuter dasturi va texnologiyasiga asoslanadi. Buning uchun o‘qituvchi tomonidan har bir mashg‘ulotlar uchun loyihalar tayyorланади. Mashg‘ulotlar loyihalarida quyidagilar aks etishi kerak:

- mavzu bo‘yicha ma’lumotlar matnnini berish;
- har bir mavzu bo‘yicha bir necha topshiriqlar majmuini ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan topshiriqlarda o‘quvchilarning mustaqil fikrashi va ijodiy yondashuvini hisobga olish;
- har bir topshiriqlarni jadvallar, diagrammalar va tasvirli shakllar bilan taqdim etish;
- o‘quvchilar bilan virtual aloqaga kirishish.

“Tarbiya” fanini boshlang‘ich ta’limda o‘qitishda elektron-modulli shaklga asoslanish uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari quyidagilarni o‘zlashtirishi kutilgan samarani beradi:

- o‘qitishning elektron-modulli shakli asoslarini o‘zlashtirish;
- turli mavzular bo‘yicha elektron-modulli materiallar tayyorlashni o‘rganish;
- “Tarbiya” fanini elektron-modulli o‘qitish shaklida amalga oshirish metodikasini egallash;
- elektron-modulli o‘quv materiallari tayyorlash ko‘nikmasi bilan qurollanish.

Hozirgi zamон oliy pedagogik ta’lim jarayonida pedagogik turkumdagи fanlar vositasida o‘qitishning elektron-modulli shakli bo‘yicha yetarli ma’lumotlar berilmоqda.

Quyidiga kitobni o‘qib chiqing: Mardonov SH.Q. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didiaktik ta’minotini ishlab chiqish texnologiyasi. –Toshkent, 2021.

O‘qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. Ta’lim qonuniyatları va tamoyillari” mavzusidagi amaliy mashg‘ulot ishlanmasi

Amaliy mashg‘ulot

1. Ushbu amaliy mashg‘ulotdagi topshiriqlar bilan tanishish uchun ro‘yxatdan o‘tishingiz lozim.

Familiyangiz:

Ismingiz:

Sharifingiz:

1-sahifa

Ta’lim jarayoni “FORMULA”si

Izoh: odatda formula deganda ko’z o’ngimizda metemetik-fizik hodisalar gavdalanadi. Biroq ta’lim jarayoni ham o’ziga xos formulalardan foydalanish xususiyatiga ega. Quyidagi formulaga e’tibor qarating va izohlang. Sizningcha, unda qanday ma’no ifoda etilgan?

$$\mathbf{DJ} = \mathbf{M} + \mathbf{Abf} + \mathbf{Ab}$$

DJ -

M -

Abf -

Ab -

*Kiritilayotgan so‘zlarni xatolarsiz va faqat kichik lotin harflarda yozing!!!

Keyingi topshiriqqa o’tish

1. Keys topshirig‘i: “Ta’lim jarayoni yaxlit hodisa sifatida”

Quyida keltirilgan chizmaga e’tibor qarating. Unda grafik ifoda etilgan, biroq unda aks etishi lozim bo’lgan jumlalar chizma ostida berilgan. Mazkur jumlalarni shunday ketma-ketlikda joylashtiringki, natijada ta’lim jarayoni tarkibiy qismlarining o’zaro aloqadorligi va bog’liqligi aniq namoyon bo’lsin.

Chizmada aks etishi lozim bo’lgan jumlalar: 1. Maqsad. 2. Natija. 3. O’qituvchi faoliyati. 4. Talaba faoliyati. 5. Mazmun. 6. Shakl. 7. Metod. 8. Vosita.

* Kiritilgan so‘z yoki jumlaning faqat raqamini kriting!

Keyingi topshiriqqa o’tish

2. Ijodiy TEST Topshirig‘i

1. *Gapni tugallang:*

Barqaror, takrorlanuvchi, invariantli, tavsifga ega narsa-hodisa va jarayonlarning ichki mavjud aloqalari

Nuqtalar o’rniga kerakli so‘z yoki jumlanı topib qo’ying.

Didaktika deganda ta’limiy hodisalarining namayon bo‘lishi va rivojlanishi bilan shartlanadigan ichki mavjud aloqalar tushuniladi.

3. *Gapni tugallang.*

Ta’lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi ob’ektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik deyiladi.

4. Nuqtalar o‘rniga kerakli jumlani topib qo‘ying.

o‘quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakli va metodlarini belgilovchi boshlang‘ich qoidalardir.

5. Gapni tugallang.

Ta’lim tamoyillarini amalga oshirish texnologiyasi

6. Nuqtalar o‘rniga kerakli jumlani topib qo‘ying (o‘quv rejasi).

O‘quv shakllari, o‘quv predmetlari ro‘yxati va hajmini, ularning o‘quv haftalari, yarim yilliklari bo‘yicha taqsimlanishini belgilaydigan, bo‘lajak mutaxassislarni o‘quv predmetlari, kasbiy va umumiy tayyorgarligi orasida o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlovchi me’yoriy hujjat bu –

7. Gapni tugallang (darslik).

O‘quv dasturi va o‘qitishning maqsadiga mos holda biror o‘quv predmeti haqida ilmiy bilimlarni aks etiruvchi kitob bu –

8. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying (o‘quv dasturi).

Ta’lim mazmuni, uni talabalar tomonidan o‘zlashtirishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan normativ hujjat bu –

9. Gapni tugallang (didaktika).

pedagogikaning “nimaga o‘qitish”, “nimani o‘qitish” va “qanday o‘qitish” kabi savollarga javob izlovchi mustaqil tarmog‘idir.

10. Gapni tugallang (o‘qitish).

insonlar orasida yashash, hayot tumush kechirish va faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini o‘zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir.

11. Gapni tugallang (qiziqish).

bilish xohishi asosida shakllanadigan jarayon bo‘lib, uning yordamida ilmiy ijodiyotga kirib borish mumkin.

12. Gapni tugallang (Pedagogika).

ta’lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Ularning mazmuni. Usullari hamda tashkil etish shakllari haqida ma’lumot beruvchi fan.

13. Gapni tugallang (lider).

Pedagogik jamoada o‘zining shaxsiy sifat, fazilatlari bilan jamoa a’zolariga o‘z ta’sirini o’tkaza oladigan shaxs bu

14. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlanı topib qo‘ying (o‘qitish jarayoni).

- tartibga solingan jarayon bo‘lib, ta’lim va o‘quv masalalarini hal etishda va o‘quvchilarning (talabalarning) aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan jarayondir.

*Kiritilayotgan so‘larni xatolarsiz va faqat kichik lotin harflarda yozing!!!

Keyingi topshiriqqa o‘tish

4-sahifa

3. Ta’limning qonuniyatlarini o‘zlashtirishga doir topshiriqlar 1) ta’limning umumiyligini qonuniyatlariga doir topshiriqlar.

1.1. Quyidagilar orasidan ta’lim maqsadni belgilovchi qonuniyatlarni aniqlang.

- jamiyatning rivojlanish sur’ati va darajasi;
- ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati;
- o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi;
- jamiyatning talablari va imkoniyatlari;
- o‘quvchilarning yoshi va ta’lim olish imkoniyatlari;
- pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari.

1.2. Quyidagi qonuniyatlarni ta’lim jarayonining qaysi tarkibiy qismiga tegishli deb o‘ylaysiz?

1) avvalgi bosqich mahsuldarligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar;

2) o‘tilayotgan material xususiyati va hajmi;

3) o‘quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta’sir ko‘rsatish;

4) o‘quvchilar bilim olishiga qobiliyatları va ta’lim olish vaqtı.

Bu qonuniyatlar ta’lim jarayonining qismiga tegishli.

1.3. Ta’lim metodlari samaradorligi quyidagi qaysi qonuniyatlarini hisobga olish bilan bog‘liq?

- ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiyaga;
- ta’limning ichki rag‘batiga;
- ta’lim maqsadiga;
- o‘quvchilarning yoshi, ta’lim olish imkoniyatlariga;
- ta’lim muassasasining moddiy-texnik ta’minotiga.

1.4. Quyidagi qonuniyatlaridan qaysilari ta’lim sifatini ta’minlashga hizmat qiladi?

- o‘rganiyatgan material xususiyati va hajmi;
- ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi;
- ta’limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari;
- avvalgi bosqich mahsuldarligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar.

1.5. Ta’lim mazmunini belgilashda qaysi qonuniyatlarga amal qilish lozim?

- ta’limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari;
- o‘rganiyatgan material xususiyati va hajmi;
- ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati;
- o‘quvchilarning yoshi va imkoniyatlari;
- ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiya;
- ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi.

2) ta’limning xususiy qonuniyatlariga doir topshiriq.

Quyidagi fikrlar bilan tanishing va ularning ta’limning qaysi xususiy (tashkiliy, sotsiologik, psixologik, kernetik, gnoseologik) qonuniyatiga tegishli ekanligini aniqlang:

I. Ta’lim natijalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘nikmalariga: ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning o‘quv faoliyati[▽] hajmiga; bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo‘llanilishiga; o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi o‘zaro aloqador bilim, ko‘nikma



...

va malakalarning o‘zlashtirilish hajmiga
to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq

II. Ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning
o‘quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash
darajasi, kuchi, jadalligi va o‘ziga xosli-
giga; xotiraning rivojlanganlik darajasiga;
bilish faolligi darajasiga bevosita bog‘liq

III. Ta’lim samaradorligi qayta aloqalar-
ning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati
o‘quv jarayonini boshqarish sifatiga;▼
boshqaruvning samaradorligi boshqa-
ruvga doir axborotlarning soni va sifatiga
bog‘liq

VI. Individning rivojlanishi u bevosita va
bilvosita muloqotda bo‘ladigan individlar-
ning rivojlanishiga; ta’lim samaradorligi
“intellektual muhit”ning mavjud holatiga,
o‘zaro bir-biriga o‘rgatishning jadalligiga;
o‘qituvchi va o‘quvchilar muloqotining
sifatiga bevosita bog‘liq

V. Ta’lim natijasi o‘quvchining o‘quv
mehnatiga, o‘zining o‘quv majburiyatla-
riga munosabatlariiga; o‘quvchining ish-▼
chanlik qobiliyatiga; o‘quvchilarning
aqliy faolligini oshirish o‘quv mashg‘uloti
jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tar-
biya va mehnat mashg‘ulotlarining joy-
lashtirilishiga bevosita bog‘liq



Keyingi topshiriqqa o’tish

3. Ta’limning mazmunli va tashkiliy – metodik tamoyillarini aniqlashga doir chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar

Quyida keltirilgan ta’lim tamoyillari bilan tanishing. Ularni maqsadiga ko’ra ikki turga (mazmunli va tashkiliy metodik) ga ajrating.

1. Insonparvarlik.
2. Tabiat bilan uyg‘unlik.
3. Ko‘rgazmalilik.
4. Onglilik, faollik, ijodiylik.
5. Madaniyat bilan uyg‘unlik.
6. Tushunararlilik.
7. Ilmiylik.
8. Ta’limning amaliyot bilan uyg‘unligi.
9. Izchillik, tizimlilik.
10. Tarbiyalovchi ta’lim.
11. O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.
12. Oqilona talabchanlik bilan ta’lim oluvchi shaxsini hurmat qilish.

| Ta’limning mazmunli tamoyillari | Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillari |
|--|---|
| | |

*Javoblarning faqat raqamini vergul (,) bilan ajratgan holda kiritiring! Masalan: 1,4,5,12.....

Mashg‘ulotni yakunlash

11-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitishning amaliy asoslari metodikasi

“Tarbiya” fanini boshlang‘ich ta’limda o‘qitishda asosiy e’tibor uning amaliy asoslariga qaratiladi. Chunki mazkur fanning negizini

amaliy natijalar tashkil etadi. Shu jihatdan ushbu mavzuni o‘zlashtirishda quyidagilarga e’tibor berish tavsiya etiladi:

- fanni o‘qitishning huquqiy asoslari;
- fanni o‘qitishning tashkiliy asoslari;
- fanni o‘qitishning ijtimoiy asoslari.

“Tarbiya” fanini boshlang‘ich ta’limda o‘qitishning tashkiliy asoslarini quyidagi hujjatlar tashkil etadi: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2020 yil 14 oktyabrdagi 235-sonli Buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarbiya” fani uchun umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari” va “Tarbiya” fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini o‘quvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari”. Bu hujjatlar boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning huquqiy asosi hisoblanadi.


Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning tashkiliy asoslari quyidagi hujjatga asoslanadi: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldaggi 422-sonli “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyatga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Ushbu hujjatga asoslan boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoni tashkil etiladi.

Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning ijtimoiy asoslari quyidagi hujjatga asoslanadi: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiysi”. Bu konsepsiya boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning eng muhim ijtimoiy asosi hisoblanadi.

Ta’kidlangan hujjatlarni o‘rganing va konspekt qiling.

I-topshiriq: “Tarbiya” fanini o‘qitishning tashkiliy asoslarini quyidagi chizmada qayd eting:

1-chizma



**2-topshiriq: “Tarbiya” fanini o‘qitishning tashkiliy shakllarini
1-jadvalga muvofiq tavsiflang:**

| Didaktik dars | Rivojlantiruvchi dars | Muammoli dars | Dasturli dars |
|---------------|-----------------------|---------------|---------------|
| | | | |

**12-mavzu: “Tarbiya” fanini o‘qitishning amaliy shakllari
metodologiyasi**

Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning amaliy shakllari o‘ziga xos hisoblanadi. Bunday shakllar mazkur fanning kutilgan darajada o‘qitilishini va uning samardorligiga erishishini ta’minlaydi. Shu jihatdan ushbu mavzuni o‘zlashtirishda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- o‘qitishning klaster mexanizmi (mutaxassislar, ilmiy va o‘quv markazlari, ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilarning mustahkam hamkorligiga asosan amalga oshiriladigan amaliy ta’lim shakli);
- o‘qitishning monitoring mexanizmi (har bir mavzuning, o‘quv materiallarining va topshiriqlarning muntazam ravishda kuzatib va o‘rganib borish bo‘yicha ta’limning amaliy shakli);
- o‘qitishning indikator mexanizmi (“Tarbiya” fani vositasida o‘quvchilarning aqliy, jismoniy, ruhiy, estetik, mehnat va fuqarolik tarbiyasi olinganligi o‘lchovni).

Bunday amaliy shakllar boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’limning bunday amaliy shakllarini o‘zlashtirishi taqozo etiladi.

Pedagogik turkumdagи fanlar vositasida ta'limning amaliy shakllarini o'zlashtiring va ularni pedagogik amaliyat davrida tajriba-dan o'tkazing.

13-mavzu: "Tarbiya" fanini o'qitishning amaliy mexanizmlari

Boshlang'ich ta'lim jarayonida "Tarbiya" fanini o'qitishning turli shakllari, vositalari va usullariga asoslanish, mazkur fanning amaliy natijalariga erishish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli bugungi boshlang'ich sinf o'qituvchisi izlanuvchan, tashkilotchi va tashabbuskor sifatlarga ega bo'lishi taqozo etiladi. Mazkur fanni o'zlashtirishda o'qitishning amaliy mexanizmlariga asoslanish ana shu vazifalarning ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'qitishning amaliy mexanizmlari deganda o'quv-bilishning ilmiy asoslarini hayot va amaliyat bilan bog'lovchi usullari tushuniladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishning quyidagi muhim amaliy mexanizmlariga tayanish tavsiya etiladi:

- pedagogik tadqiqotlar xulosalari va tavsiyalaridan muntazam foydalanib borish;
- ijtimoiy so'rovnoma vositasida fanni o'zlashtirish darajasini o'rghanib borish;
- ilg'or o'qituvchilarining individual tajribalarini o'rghanish va ulardan foydalanish.

Bunday amaliy mexanizmlar boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishni amaliyat bilan bog'lash imkonini beradi. Shu sababli pedagogik turkumdagи fanlar vositasida o'qitishning amaliy mexanizmlarini o'zlashtirish tavsiya etiladi.

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya" o'quv fani vositasida o'qitishning amaliy mexanizmlarini o'zlashtiring va konspekt qiling.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MAVZULAR VA TOPSHIRIQLAR

Mustaqil ta'lif uchun quyidagi mavzular va topshiriqlar tavsiya etiladi:

1. Didaktikaning asosiy tamoyillari
2. “Tarbiya” fanini o‘qitish metodlari
3. “Tarbiya” fanini o‘qitish texnologiyalari
4. O‘qitishning noan’anaviy shakllari xususiyatlari
5. “Tarbiya” fanini o‘qitishda xorij tajribasidan foydalanish
6. Tarbiya fanini o‘qitishda individual uslublar
7. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash
8. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ongiga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish
9. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanganlik darajasini baholash
10. O‘zbekistonning yangi milliy g‘oyasi
11. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyasida milliy g‘oya asoslari
12. O‘quvchilarning milliy g‘oya asosida tarbiyalanganligini aniqlash indikatorlari.
13. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyasida pedagogik tamoyillar
14. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyasida psixofiziologik tamoyillar
15. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyasida ijtimoiy tamoyillar
16. Didaktikaning asosiy tamoyillari
17. “Tarbiya” fanini o‘qitish metodlari
18. “Tarbiya” fanini o‘qitish texnologiyalari
19. O‘qitishning noan’anaviy shakllari xususiyatlari
20. “Tarbiya” fanini o‘qitishda xorij tajribasidan foydalanish
21. Tarbiya fanini o‘qitishda individual uslublar
22. Masofaviy ta’lim xususiyatlari
23. “Tarbiya” fanini o‘qitishda masofaviy ta’limning o‘rni
24. Masofaviy ta’lim vositasida “Tarbiya” fanini o‘qitish samara-dorligi
25. Inklyuziv ta’lim xususiyatlari
26. “Tarbiya” fanini o‘qitishda inklyuziv ta’lim asoslari

27. Inklyuziv ta’lim asosida “Tarbiya” fanini o‘qitishning ahamiyati
28. O‘qitishning elektron-modulli shakli xususiyatlari
29. “Tarbiya” fanini o‘qitishda elektron-modulli shakldan foydalanish
30. Elektron-modulli shakldan foydalanish samaradorligi
31. “Tarbiya” fanini o‘qitishning huquqiy asoslari
32. “Tarbiya” fanini o‘qitishning tashkiliy asoslari
33. “Tarbiya” fanini o‘qitishning ijtimoiy asoslari
34. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fazilatlarni shakllantirish
35. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirish.
36. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faoliyatga yo‘naltirish
37. “Tarbiya” fanini o‘qitishning klaster mexanizmi
38. Fanni o‘qitishning monitoring mexanizmi
39. Fanni o‘qitishning amaliy mexanizmlari monitoringi
40. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini aniqlash indikatorlari
41. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini o‘rganish
42. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini baholash
43. “Tarbiya” fanini o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda tadqiqotlar hulosalaridan foydalanish Fanni o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda ijtimoiy so‘rovnomalardan foydalanish
44. Fanni o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda individual amaliy tajribalardan foydalanish
45. Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish xususiyatlari
46. “Tarbiya” fani o‘qituvchisi professiogrammasi
47. “Tarbiya” fanining ilmiy-tadqiqot metodlari
48. “Tarbiya” fanining individual metodlari
49. “Tarbiya” fanini o‘qitishning milliy tajribasi

Glossary

Tarbiya – inson shaxsi ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan say-haraktlar tizimidir. Tarbiya keng ma’noda u yoki bu sifatlarning yoki ijtimoiy guruhlarning maqsadlariga muvofiq odamlarning yangi avlodlariga avval avlodlarning ijtimoiy – tarixiy tajribasini uzatish vositasi bilan jamiyatning rivojlanishini ta’minlovchi vazifasi.

Tarbiyaning tor ma’nosи – ijtimoiy institutlar doirasida va ta’sirida ijtimoiy amaliyotniqning har bir doirasidagi hayotiy faoliyatiga, ijtimoiy vazifalarni va rollarni bajarishga tayyorlash maqsadida shaxsni ongli, maqsadga yo’naltirilgan, muntazam shakllantirish jarayoni, ta’lim tizimining tarkibiy qismi. Tarbiya ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o‘qituvchining o‘quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o‘zaro ommaviy va nazariy muloqotdir.

Tarbiya vazifikasi – ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutilgan holda o‘qituvchining o‘quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyaning qanday metodidan foydalanishga bog‘liq.

Tarbiya jarayoni – tarbiya jarayonining mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko‘nikmaga aylantirib borish lozim.

Tarbiya maqsadi – talaba yoshlarda milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo‘llaniladi.

Tarbiya metodlari – metod lotincha *metodos* – yo‘l so‘zidan olingan. Metod tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida “metod” so‘zi keng ma’noda muayyan maqsadga erishish yo‘li tushuniladi.

Tarbiya tamoyillari – tarbiyaning maqsadga yo’naltirilganligi va g‘oyaviyligi; tarbiyada demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustunligi; tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi; tarbiyada izchillik va tizimlilik, tarbiyani ijtimoiy hayot bilan uyg‘un holda olib borish; tarbiyani mehnat faoliyati bilan bog‘lash; tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish; tarbiyalanuvchi shaxsini hisobga olish; jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash; tarbiyada tarbiyalanuvchi xulqidagi ijobjiy sifatlarga tayanib salbiy tomonlarni yo‘qotish.

Tarbiya qoidalari:

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyani hayotiy faoliyat bilan bog‘liq hodisa deb bilish;
- shaxs tarbiyasida jamoaning o‘rnii borligi;
- tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchan bo‘lish va uning shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchining tarbiya jarayonida yoshi va o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishiga e’tibor.

Tarbiya qoidasi (TQ) - pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang‘ich holat, rahbarlik asosidir. TQlari deganda o‘qituvchi va tarbiyachilarga yo‘l- yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalari hisoblanadi. TQ Sharq va Markaziy Osiyo donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlariga asoslanadi.

TQlarga quyidagilar kiradi:

- tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilganligi;
 - tarbiyaning insonparvarlik va demokratiya qoidasi;
 - tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi qoidasi;
 - tarbiyada o‘quvchilarning yosh va individul xususiyatlarini hisobga olish;
- izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta’sirlarning birligi va uzlusizligi qoidasi (*Munavvarov A.*)

Tarbiyaviy jarayon – rivojlanib borayotgan avlodning katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni bo‘lib, insonlarning rivojlanishini boshqarish hamda ularning shaxsiy xislatlari shakllanishiga zarur sharoitlar yaratib beradi. Ayrim hollarda **tarbiya bilan rivojlanish** o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yo‘qdek tuyuladi, aslida ular o‘rtasida bog‘liqlik juda murakkab va ahamiyatlidir. Inson shaxsi tarbiya jarayonida rivojlanib boradi, rivojlanish darajasi uning tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni, o‘zgartiradi, shakllantiradi. Yaxshi tashkil etilgan tarbiya jarayoni shaxsnинг rivojlanish darajasini tezlashtiradi va yana tarbiyaga qayta ta’sir ko‘rsatadi. Shu tarzda insonning butun hayoti davomida bu ta’sir va aks ta’sirlar o‘zaro bir-birini to’ldirib, ta’minlab boradi (*Djuraev R.X., Turg‘unov S.T.*).

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. // www.Ziyonet.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyundagi 422-sonli “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // www.Ziyonet.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyundagi 422-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiysi”. . // www.Ziyonet.uz
4. Abdujalilova SH. Abdurauf Fitratning “Tarbiya” fani talqini. – Toshkent, 2020. – 36 b.
5. Tarbiya kitobi. 1-4-sinflar uchun darslik. –Toshkent, 2020.
6. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T., 2004
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017. 29 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017. – 47 b.
9. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017. – 485 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezungulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning asosiy poydevoridir. –Toshkent, 2021
11. Karimjonov A.va boshq. Ta’lim muassasalarida me’yoriy hujjatlar yuritish. –Chirchiq.,2020.-320 b.
 1. www.ziyonet.uz
 2. www.pedagog.uz
 3. www.edu.uz
 4. www.tdpu.uz

ONAXON JABBOROVA, ZUXRA UMAROVA

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISH METODIKASI

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 25.08.2022.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. “Times New Roman”

garniturasi. Hisob-nashr tabog‘i. 7,0.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 109.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.